

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!

www.mv-vatanparvar.uz



VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazetadan 10 kun oldin chiqib boshlagan ● 2024-yil 20-dekabr, №51 (3113)

4-5 YOSHLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH – PIROVARD MAQSADIMIZ

10 “OTANGGA RAHMAT!” SIYLOVIGA MUSHARRAF O'G'IL

16 MURG'AK QALB EGALARI

18 BO'LAJAK CEMPIONLAR TARBIYALANAYOTGAN MASKAN

Olq'a bos, yengib bo'lmas to'siq yo'q!



IJTIMOIIY-SIYOSIIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

BIZ
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz

t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

FARMATSEVTIKA SOHASIDAGI MUHIM TASHABBUSLAR AHOLI SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASHGA XIZMAT QILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 18-dekabr kuni Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi “Tashkent Pharma Park” innovatsion ilmiy ishlab chiqarish farmatsevtika klasteriga tashrif buyurib, Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi va klasterdagi korxonalar faoliyati bilan tanishdi, sohadagi ustuvor vazifalar yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Davlatimiz rahbari dastlab “Tashkent Pharma Park” innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish farmatsevtika klasterini borib ko‘rdi.

Mazkur majmua Prezidentimizning 2020-yil 28-yanvardagi qaroriga muvofiq tashkil etilgan, o‘sha yili 17-aprelda uning qurilishiga tamal toshi qo‘yilgandi.

Birinchi bosqichda qariyb 20 gektar maydonda texnopark barpo etilmoqda. U ma‘muriy markaz, tadqiqot va rivojlantirish markazi (R&D), farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi laboratoriyasi, klinik tadqiqotlar markazi, Farmatsevtika texnik universiteti hamda vivariyni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda ma‘muriy markaz qurib bitkazilgan. 11 qavatli ushbu binoda Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi, konferensiya zali, kovorking markazi, biznes inkubator, kutubxona, soha tarixi muzeyi joylashgan.

Davlatimiz rahbari ushbu markazni va navbatdagi inshootlar qurilishini ko‘zdan kechirdi.

Klasterdan asosiy maqsad yuqori texnologiyalarni joriy etish orqali mamlakatimiz farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish, xalqaro innovatsion tizimga integratsiyalashish, yuqori sifatli dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ishlab chiqarish, malakali mutaxassislar tayyorlashdir. Ushbu keng ko‘lamli maqsadlardan kelib chiqib, Toshkent viloyati Zangiota tumanidan 190 gektar yer maydoni ajratilgan.

Hozirgi kunda bu yerdagi sanoat zonasida umumiy qiymati 818 million dollarlik 21 ta loyiha joylashtirilgan. Ularning birinchisi – “Grand Pharm Logistics Hub” tomonidan 40 million dollarlik distribyutorlik markazi ishga tushirildi va 300 dan ortiq ish o‘rni yaratildi. Korxonalar Turkiya, Hindiston, Xitoy, Malayziya, Birlashgan Arab Amirliklari, Rossiya bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

Prezidentimiz ushbu loyihalar tashabbuskorlari bilan suhbatlashdi. Investitsiyalarni jalb etish va qo‘llab-quvvatlash izchil davom ettirilishini ta’kidledi.

Kelgusida sanoat zonasida yana 620 million dollarlik 20 ta loyiha amalga oshirilishi mo‘ljallangan.

Umuman, klasterda yuqori sifatli dori-darmonlar va tibbiy buyumlar ishlab chiqariladi, import bo‘layotgan mahsulotlar mahalliyashtiriladi, 8 ming ish o‘rni yaratiladi. Zarur amaliyotlar markazi (GxP) tovarlarning tayyorlanishidan iste‘molchiga yetib borishigacha bo‘lgan barcha bosqichlarda xalqaro standartlarga muvofiqlik va sifatni ta‘minlashga ko‘maklashadi.

Davlatimiz rahbariga shu yerda barpo etiladigan Farmatsevtika texnik universiteti haqida axborot berildi.

Unda farmakopeya markazi, kutubxona, sport majmuasi, o‘qituvchilar va chet ellik xodimlar uchun turarjoy bo‘ladi. Sanoat farmatsiyasi, biokimyo va biotibbiyot, biotexnologiya, biofarmatsevtika, bioinformatika kabi yo‘nalishlarda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanadi. Buning uchun ta‘lim xalqaro dasturlar asosida yo‘lga qo‘yiladi, mikrobiologiya, biotexnologiya, hujayra biologiyasi, farmakologiya, tahliliy kimyo kabi laboratoriyalar tashkil etiladi.

Universitetga joriy o‘quv yilida ilk talabalar qabul qilindi. Prezident ular bilan muloqotda bo‘ldi.

– Biz rivojlangan davlatlardan investorlar olib kelyapmiz. Ular O‘zbekistonga qanday qilib baho beradi? Sizlar bilan muloqot qilib. Mamlakatimizning boyligi – yoshlar! Farmatsevtika bo‘yicha ham eng yaxshi dasturlarni qo‘llab, kelajak uchun mutaxassislarni tayyorlab olmasak, boshqalarga pul to‘laymiz, bog‘liq bo‘lib qolamiz. Shuning uchun zamonaviy universitet tashkil qilib, dual ta‘limni yo‘lga qo‘yyapmiz. Bu yerda ham bilim olasizlar, ham o‘qiganlaringizni amalda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lasiz, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mazkur o‘quv yurti bitiruvchilariga Koreya Respublikasining Yonse, Buyuk Britaniyaning Sanderlend va De Monfor universitetlarining xalqaro miqyosda tan olinadigan diplomlari beriladi. Shuningdek, Dandi, Pusan va Perdyu universitetlari bilan ilmiy hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev “Tashkent Pharma Park” innovatsion klasterida farmatsevtika sohasidagi korxonalar rahbarlari bilan muloqot qildi.

Ham iqtisodiy, ham ijtimoiy ahamiyatga ega bu sohaga davlat tomonidan keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Oxirgi yetti yilda farmatsevtikada ishlab chiqarish 2 karra oshgan. Eksport 11 barobar ko‘paygan. 750 million dollar investitsiya o‘zlashtirilib, korxonalar soni 3 barobar o‘sgan.

Yurtimizda 3,5 ming turdagi dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqarilayapti. Lekin bu talabni to‘la qoplamaydi.

Shu bois davlatimiz rahbari ko‘p turdagi dorilarni mahalliyashtirish va eksportni kengaytirish bo‘yicha muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

“Asakabank” va Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligiga yirik mahalliy korxonalar bilan birga 2025-yilda keng iste‘mol qilinadigan 200 turdagi dori vositalarini o‘zlashtirish hamda ishlab chiqarishni 2 barobar oshirish bo‘yicha dastur tayyorlash topshirildi. Bunday loyihalarga xorijdan jalb qilingan 400 million dollar qulay shartlarda yo‘naltiriladi.

Endi farmatsevtika tarmog‘ida ilg‘or loyihalar investitsiya jamg‘armasi tashkil qilinadi. Bu jamg‘arma biofarmatsevtika, hujayra texnologiyalari, onkologiya kabi yo‘nalishlardagi loyihalarga ulush bilan kiradi, ularga katalizator bo‘ladi.

Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan “Asakabank”ka sohani rivojlantirish uchun 100 million dollar kredit liniyasi ochilgan. Endi bu mablag‘ lizing uchun ham beriladi.

“Asakabank” tomonidan farmatsevtika sohasida yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish va startap loyihalarni moliyalashtirish uchun 10 million dollarlik venchur kompaniya ochiladi. Startap loyiha chetdan qancha mablag‘ jalb qilsa, mazkur kompaniya shuncha pulni qo‘shimcha ekspertizasi beradi.

Yangi ishlanmalar uchun Innovatsiya jamg‘armasidan 20 milliard so‘m grant ajratiladi. Bu olimlar yaratayotgan yangi mahalliy dori ishlanmalarini tijorat loyihasi ga aylantirish va startaplar uchun yo‘naltiriladi.

Mahalliy farmatsevtika korxonalariga 2025-yil 1-yanvargacha berilgan bojxona imtiyozlari muddati yana 3 yilga uzaytiriladi.

Mamlakatimiz korxonalari yetakchi xorijiy farmatsevtika kompaniyalari texnologiyasi va retsepti asosida dorilar chiqarishga tayyor. Lekin bunday kooperatsiya uchun huquqiy asos yaratilmagani sababli har bir dorini yangi mahsulot kabi klinik tadqiqot va ro‘yxatdan o‘tkazishga to‘g‘ri kelyapti. Bunga ko‘p vaqt ketadi. Shu bois bu tartibni soddalashtirish muhimligi aytiladi.

Tadbirkorlarning eksport bozorlarini kengaytirish uchun AQShning Oziq-ovqat va dori vositalari sifati nazorati boshqarmasi (FDA) hamda Yevropa tibbiyot agentligi sertifikatlarini olish xarajatlari byudjetdan qoplab beriladi.

Yurtimizda o‘simliklarni sanoat usulida yetishtirib, qayta ishlash orqali substansiya va kosmetik komponent olish rivojlantirildi. Shunga muvofiq, “Asakabank” ishtirokida kelgusi yilda har biri 5 gektardan bo‘lgan dorivor o‘simliklar plantatsiyasi barpo etilib, ularni qayta ishlash bo‘yicha 5 ta namunaviy loyiha bajariladi.

Umuman, farmatsevtikada 1 milliard dollarlik loyihalar shakllantirilishi belgilandi. Ular talab yuqori dori vositalarini chet elnikidek sifatda ishlab chiqarib, bozorda raqobat yaratib, narxlarini arzonlashtirishga qaratilgan.

Muloqotda soha vakillari ishlab chiqarishni rivojlantirish, mahsulotlar sifati va eksportini oshirish, ilm va ta‘limni rag‘batlantirish bo‘yicha fikr-mulohazalarini bildirdi.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev “Grand Pharm Logistics Hub” faoliyati bilan tanishdi.

Ushbu logistika markazi “Tashkent Pharma Park” innovatsion klasteri hududida o‘n gektar maydonda joylashgan. Loyihaning umumiy qiymati 40 million dollar bo‘lib, uch qavatli ma‘muriy bino, omborlar, mehmonxona, oshxona va yotoqxona qurilgan. 300 dan ortiq ish o‘rni yaratilgan.

Mahsulotlarni saqlash joyi 50 ming kvadrat metr. Bu yerda katta hajmdagi farmatsevtika mahsulotlarini xalqaro standartlar asosida qabul qilish, saqlash va tarqatish imkoniyati mavjud. Bu bosqichlar to‘liq raqamlashtirilgan.

Davlatimiz rahbari ushbu jarayonlarni ko‘zdan kechirdi.

Logistika markazi “Tashkent Pharma Park” farmatsevtika klasteridagi boshqa ishlab chiqaruvchilarga ham qo‘l keladi. Mahsulotlarni saqlash va eksport qilishlarida xalqaro “SAP” tizimi orqali amaliy yordam beriladi. Buning uchun dori vositalari sifatini ta‘minlash bo‘yicha “GDP” va “GSP” sertifikatlari hamda bojxona ombori, xalqaro yuklarni tashish uchun litsenziyalar mavjud.

Bu boradagi talablarni ta‘minlash uchun xalqaro standartlarga muvofiq havoni sovutish tizimlari o‘rnatilgan. Yuklarni ortish paytida ham harorat mo‘tadilligi ta‘minlanadi. Yigirmadan ortiq yuk mashinalarida tashish xizmatlari ham ko‘rsatiladi. Majmuada bunday transportlar uchun turargoh va texnik xizmat ham tashkil etilgan.

Bugungi kunda Rossiya, Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Germaniya, Polsha, Fransiya, Vengriya, Ruminiya va Turkiya kabi davlatlar bilan logistik aloqalar o‘rnatilgan. Bu geografiya yildan yilga kengayib bormoqda.

Mutasaddilarga mahsulotlarni saqlash va rasmiylashtirishda qulayliklarni oshirish, tannarxni kamaytirib, dorilarni arzonlashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Kompaniya farmatsevtika bozorini muntazam o‘rganib, tibbiyot sohasidagi ehtiyojlarni ham tahlil qilib boradi. Natijada, yetkazib berish yo‘nalishi ko‘lami kengayib bormoqda. Ushbu korxonada mamlakatimiz hududi bo‘ylab 7 ming 500 dan ortiq dorixonaga tovarlar yetkazib beradi. Shuningdek, onlayn dorixonada xizmati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu boradagi hamkorlar soni ham ortmoqda.

Bu yerda “GPH Academy” loyihasi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, qator oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlik qilinmoqda. Uchta ta‘lim dargohida amaliy mashg‘ulot xonalari tashkil etildi. Uch ming nafar farmatsevt malaka oshirish kurslaridan o‘tdi. O‘ttiz nafarga yaqin talaba ushbu loyihaning stipendiya va grantlariga ega bo‘ldi.

**Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O‘ZA muxbirlari**

Kasb bayrami

ILG'ORLAR

HAMISHA E'ZOZDA

Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasida Mudofaa vazirligi qo'shinlarida xizmat qilib kelayotgan Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar hamda kadr organlari mutaxassislari kuni munosabati bilan tantanali tadbir bo'lib o'tdi.



Unda Mudofaa vazirligi rahbariyati, kuch tuzilmalari vakillari, vazirlik va idoralarning mas'ullari, Qurolli Kuchlar faxriylari hamda harbiy xizmatchilar ishtirok etdi. Tadbirda milliy armiyamizning asosiy bo'g'ini, armiya madaniyati va uning kadrlar siyosatini belgilovchi kasb vakillarining mashaqqatli va sharafliligi xizmat faoliyati yuksak darajada e'tirof etildi.

– Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, “Tarbiya biz uchun – yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, – deydi Sharqiy harbiy okrugda xizmat qilib kelayotgan vztod komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari leytenant Xurshid Hoshimov. – Bu fikrlar yillar o'tsada, o'z kuchini yo'qotgani yo'q. Yo'qotmaydi ham. Chunki bugungi globalashuv davrida, ayniqsa kishi tarbiyasiga ta'sir qiladigan omillar juda ko'p. Shuning uchun ham men shaxsiy tarkib bilan ishlashga, ularning ma'naviy dunyosini yanada boyitishga, qalblaridagi ona Vatanga bo'lgan muhabbatni, sadoqatni, chin farzandlik burchini yanada shakllantirishga jiddiy e'tibor qarataman. Kitobxonlik madaniyatini targ'ib etaman. Bugun men bir narsani ishonch bilan ayta olamanki, Yangi O'zbekistonning milliy armiyasi saflaridagi har bir harbiy xizmatchi professional, ular so'nggi nafasi qolguncha, Vatan tinchligini asrash, fuqarolar osoyishtaligini ta'minlashga tayyordir.

Tadbir davomida joriy yilning o'tgan davri mobaynida shaxsiy tarkibning ma'naviy dunyoqarashini boyitish maqsadida olib borilgan amaliy ishlar bo'yicha g'oliblar nomi e'lon qilindi:

- ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishi bo'yicha “Eng ilg'or qo'mondonlik” – Markaziy harbiy okrug;
- harbiy xizmatchilarning jangovar ruhini oshirishga “Eng katta e'tibor qaratgan qo'mondonlik” – Sharqiy harbiy okrug;
- huquqiy madaniyatini oshirish va huquqbuzarliklar profilaktikasi yo'nalishidagi “Eng ilg'or qo'mondonlik” – Toshkent harbiy okrugi;
- harbiy xizmatchilar va ularning oilalari ijtimoiy himoyasiga “Eng katta e'tibor qaratgan qo'mondonlik” – Mudofaa vazirligi Havvo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havvo kuchlari qo'mondonligi;
- yoshlar bilan ishlash yo'nalishi bo'yicha “Eng ilg'or qo'mondonlik” – Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug hamda Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi;
- madaniy tadbirlarni tashkil etishda “Eng katta e'tibor qaratgan qo'mondonlik” – Shimoli-g'arbiy harbiy okrug g'olib sifatida e'tirof etildi.

Shuningdek, tadbir davomida Mudofaa vazirligi qo'shinlarida o'tkazilgan “Eng ilg'or mutaxassis” ko'rik-tanlovida g'olib bo'lgan harbiy xizmatchilar ham munosib taqdirlandi. Jumladan:

- “Eng ilg'or brigada, batalyon va vztod komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari” yo'nalishlarida – podpolkovnik Bahodirjon Azimboyev, kapitan Orifjon Oydinov, leytenant Xurshid Hoshimov;
- “Eng ilg'or kadr organi ofitseri” va “Eng ilg'or harbiy kasbiy-saralash organi ofitseri” yo'nalishlarida – podpolkovnik Farhodjon Shodiyev, mayor Shavkat Muhammadiyev,

mayor Muhiddin G'afforov hamda mayor Mirkomil Hamidov;

– “Eng ilg'or harbiy psixolog”, “Eng ilg'or boshlang'ich tashkilot yetakchisi” va “Eng yaxshi kitobxon” yo'nalishlarida – leytenant Doston Mamashoyev, kapitan Qodirjon Imomov, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Nurali Mo'minov diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi. Shuningdek, yana bir qator harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar faxriylariga ham sana munosabati bilan ko'krak nishonlari va qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

Darhaqiqat, qilingan mehnat hech qachon o'z mevasini bermay qolmagan. Shu kuni ham Mudofaa vazirligi qo'shinlarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish, harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini yanada oshirish, axloqiy-ruhiy sifatlarini mustahkamlash borasidagi ishlarni amalga oshirishda kuch-salohiyatlarini safarbar etib kelgan tashabbuskor yurt o'g'lonlari e'tirof etildi.

– Milliy armiyamiz mamlakatimiz tinchligi uchun xizmat qilar ekan, undagi har bir harbiy xizmatchining ma'naviy dunyosini boyitib borish, axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirish orqali el-yurt osoyishtaligini asrash, xavfsizligini ta'minlash asosiy omillardan sanaladi, – deydi Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugda xizmat qilib kelayotgan divizion komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari kapitan Orifjon Oydinov. – Shu ma'noda Mudofaa vazirligi tizimida harbiy xizmatchilarning nafaqat jangovar shayligini oshirishga, balki ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarligini yanada

yuksaltirishga ham alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

– “Eng ilg'or tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitseri” ko'rik-tanlovi haqiqiy mardlarni, Vatanni chin dildan sevib, unga hayotini bag'ishlab kelayotganlarni aniqlash imkonini berayotgani bilan ham ahamiyatli bo'lmoqda, – deydi podpolkovnik Bahodirjon Azimboyev. – Men ushbu nufuzli bahslarda g'olib bo'lish va bildirilgan ishonchni munosib tarzda oqlash uchun bor salohiyatim va kuchimni safarbar etdim. Natijada, bugun g'oliblar safidan joy oldim. Albatta, bu mening keyingi xizmat faoliyatimni yanada g'ayrat bilan olib borishda, shaxsiy tarkibning jangovar shayligini, axloqiy-ruhiy va ma'naviy dunyosini boyitishda qat'iy harakatlanishimda kuch beradi. Bugungi tadbirda hamkasblarimiz bilan o'zaro fikr almashdik, tajribalarimizni o'rtoqlashdik.

Albatta, har bir davlat o'z oldiga yetuk, har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalashni maqsad qiladi va shunga yarasha shart-sharoit ham yaratadi. Mamlakatimizda ham, ayniqsa yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular qalbiga milliy ruhni singdirish, yurtga daxldorlik, harbiy kasbga qiziqishlarini orttirishga alohida e'tibor qaratiladi. Natijada, milliy armiyamiz saflari har tomonlama salohiyatli, tashabbuskor, mafkuraviy immuniteti mustahkam azamatlar bilan butlanib bormoqda.

Tadbirda yangragan kuy va qo'shiqlar barchaning qalbidagi ona Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini yanada jo'sh urdirdi.

Kapitan Shohrux SAIDOV,
“Vatanparvar”



Hozirgi davrdagi jadal taraqqiyot tendensiyalari ta'sirida tobora globallashib borayotgan jamiyatda intellektual salohiyatni samarali ishga solish, mutaxassislarning o'z faoliyatiga ongli yondashuvini shakllantirish, ularning shaxsiy mas'uliyat va tashabbuskorlik fazilatlarini kuchaytirish katta ahamiyatga egadir.

YOSHLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH —

Ayni kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, shu bilan birga yoshlarimizning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, ularni harbiy xizmatga, ona Vatanimizni himoya qilishga tayyorlash, ularda vatanparvarlik, faxr, g'urur tuyg'ularini shakllantirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

E'tibor beradigan bo'lsak, so'nggi yillarda milliy armiyani izchillik bilan isloh qilish va rivojlantirish, davlatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash yosh harbiy kadrlarni tayyorlash borasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasining qabul qilingani, armiya va xalq birligini ta'minlash borasida mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikdagi ishlarning kuchaytirilgani milliy armiyamiz saflarini mustahkam iroda, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlar bilan to'ldirib borish imkonini bermoqda.

HOZIRGI KUNDA mamlakatimiz xavfsizligini ta'minlash va hududiy yaxlitligini saqlash, jamiyatimizda tinchlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash katta ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan yurtimiz kelajagini ta'minlashda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ahamiyati katta. Zotan, dunyoning turli mintaqalarida

ro'y berayotgan qaltis vaziyatlar Vatan mudofaasini mustahkamlash, uning himoyasi uchun tayyor turish vazifalarini keltirib chiqaradi.

Shu sabablarga ko'ra, hozirda yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi Vatanimiz xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lib, bunday tarbiyani zamonaviy talablar darajasida amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mavzuning dolzarbligini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

birinchidan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzluksiz ish olib borish eng muhim vazifalardan biri sifatida belgilanganligi;

ikkinchidan, yoshlar tarbiyasi mamlakat kelajagi va barqarorligini ta'minlashning kafolati sifatida o'zining ahamiyatini yanada mustahkamlab borayotganligi, shuningdek bugungi globallashuv va integratsion jarayonlarda turli mafkuraviy xurujlar asosan yoshlar ongiga qaratilayotganligi;

uchinchidan, Mudofaa vazirligi qo'shinlari tomonidan mamlakat yoshlarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha keng qamrovli ishlarni amalga oshirayotgan bugungi kunda, quyi pog'onadagi ofitserlarda sohaga oid nazariy-metodologik asoslarga nisbatan ehtiyojning saqlanib qolinayotganligi;

to'rtinchidan, harbiy qismlarning imkoniyatlari, ularda yo'lga qo'yilgan jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik dasturlarining o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda, yoshlar bilan harbiy-vatanparvarlik

yo'nalishida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni samarali tashkil etish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishni taqozo etayotganligi.

Tarixdan ma'lumki, inson paydo bo'lganidan boshlab, odamlar u yoki bu shakl va mazmunda farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanganlar. Ibtidoiy jamoa davrida bu jarayon ba'zan ongli, gohida esa ongsiz ravishda kechgan bo'lishi mumkin. Qanday bo'lishidan qat'i nazar, tarbiya usullari muttasil davom etavergan. Ular davrlar o'tishi, hayot va turmushning murakkablashishi natijasida tobora chuqurroq va keng ma'no kasb eta boshlagan.

Manbalarda keltirilishicha, inson asosan ikki yo'l bilan tarbiyalanishi mumkin:

birovlarining bevosita ta'siri, ya'ni o'rgatishi, shuningdek donolar fikrlari, o'gitlari va asarlarini o'qish orqali, inson o'zining fikrlashi, odamlar xatti-harakatidan, qilgan va qilayotgan ishlaridan tegishli xulosalar chiqarib olishi, eng qudratli - tafakkuri vositasida tarbiyalanishi mumkin.

VATANPARVARLIK, FIDOYILIK, XALQPARVARLIK fazilatlarini yosh avlod ongiga singdirish masalasi ming yillar mobaynida ajdodlarimiz diqqat e'tiborida bo'lib kelgan. Xususan, mamlakatimiz hududlaridan topilgan qadimgi qo'lyozmalar, bitiktoshlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, dostonlar, rivoyatlarda tilga olingan voqea-hodisalar, tasviriy san'at va asarlardagi obrazlar fikrimizga yorqin dalil bo'la oladi.

Mazkur muammo keyingi davrlarda ham millatimizdan yetishib chiqqan ko'plab buyuk allomalar,

jadidlar va millat fidoyilarining asarlarida o'z aksini topgan. Xususan, Abdulla Avloniy o'z ishlarida har bir millatning saodati, davlatlarning tinchligi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liq deya ta'kidlab: **“Tarbiya biz uchun – yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”** degan konseptual g'oyani ilgari surgan. Allomaning fikriga ko'ra, bolalarini pisand qilmagan millatlarning inqirozi muqarrardir, buning sababi avvalo o'z yoshlarini yot qo'llar va madaniyatlar ixtiyoriga berib qo'yganliklari bilan bog'liq bo'ladi. Bu bizdan Vatanimiz kelajagi bo'lmish yoshlar tarbiyasiga mas'uliyat va hushyorlik bilan yondashuvni talab qiladi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan ko'zlangan asosiy maqsad, ularda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Shu o'rinda “Vatanparvar” so'ziga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, u arabcha “Vatan” va forscha “parvar” so'zlarining birikmasidan tashkil topgan so'z bo'lib, o'z Vatani, ona yurti, xalqini cheksiz sevuvchi va Vatan manfaatlari uchun jonbozlik ko'rsatuvchi kabi ma'nolarni anglatadi.

MANBALARDA Keltirilishicha, Vatan eng avvalo, obyektiv muhit, borliq, zamin bilan bog'liq bo'lgani uchun



PIROVARD MAQSADIMIZ

kishi ongida aniq tasvir, qiyofa, siymolar tarzida, vatanparvarlik esa aniq muhit, zaminda va mavjud ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Vatanga muhabbat tuyg'usi bolaga ona suti bilan, allasi bilan kiradi. Bu aziz tuyg'u bir umr unutilmaydi. Vatanparvarlik kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy xislati, fazilatidir. Shuningdek, vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u ma'naviy qadriyatlardan biridir.

Vatanparvarlik tarixiy jihatdan kishilarning o'z Vatani taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanishi, o'zi yashagan hudud daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashlari jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu Vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda bizning real misollarga boy tariximiz alohida o'rin tutadi. Tariximizni o'rganish bizga vatanparvarlik tarbiyasi uchun zarur bo'lgan o'z Vatani, xalqi, o'tmishi ajdodlar hayotini bilish, ularni to'g'ri tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqara olish imkonini beradi. Shuning uchun ham yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning tarixiylik prinsiplari asosida – Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Shayx Najmiddin Kubro, Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Boburlar

kabi ajdodlarimizning faoliyatini va vatanparvarligini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadimda Spitamen Iskandar Zulqarnayn boshchiligidagi qudratli qo'shinning kulini ko'kka sovurgani mamlakatimiz yoshlarida g'urur va ajdodlar bilan faxrlanish hissini shakllantiradi. Yana bir muhim jihat: o'z davrining yengilmas sarkardasi sanalgan Iskandar Zulqarnaynga Markaziy Osiyo mintaqasidagi kichik bir hududni o'ziga bo'ysundirish uchun uch yil kerak bo'lganligini tarixiy faktlar asosida o'rgangan yosh yigit va qizlar qalbida o'z xalqi taqdiri uchun daxldorlik hissi mustahkamlanadi.

BUYUK VATANDOSHLARIMIZDAN Shayx Najmiddin Kubro Chingizxonning marhamatidan ko'ra, Vatan ozodligi yo'lidagi kurashda qurbon bo'lishni afzal ko'rganligi yoshlarga ibrat bo'la oladi. Uning 76 yoshida ham dushmanga qarshi jang qilish uchun o'zida kuch topa olganligi yoshlar ongiga Vatanga sadoqat, o'z xalqiga muhabbatning oliy ko'rinishlarini singdiradi.

Dunyo harbiy san'ati rivojiga munosib hissa qo'shgan buyuk sarkardalarimizdan biri Jaloliddin Manguberding qahramonligi to'g'risidagi bilimlarni o'rganish, yoshlarda harbiy kasbga qiziqishni yanada oshirib, ularni harbiy sohaga bog'liq bo'lgan davlat xizmatlariga safarbar etadi. Jumladan, Jaloliddin Manguberdi o'rgangan har bir yigit mashhur tarixchi Shahobiddin Muhammad an-Nasafiy tasvirlaganidek, **Sherlar orasida eng zo'r sher, qo'rqmas chavandoz, lashkarlar orasida**

eng botir bo'lishga intiladi. Jahldorlikdan va haqoratomez so'zlardan tiyiladi. Doimo jiddiy bo'lib, o'z Vatani jonidan ortiq sevishtni o'rgatadi.

Buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning dunyo harbiy san'ati, davlat boshqaruvi tizimi va ilm-fanning rivojiga qo'shgan hissasiga oid bo'lgan ma'naviy, ma'rifiy va madaniy tadbirlarning yoshlar bilan tashkil etilishi, yigit-qizlarda nafaqat ajdodlarimiz merosi bilan g'ururlanish hissini shakllantiribgina qolmay, ularni harbiy-kasbiy faoliyatga safarbar etadi.

SOHIBQIRON AMIR TEMURNING "Temur tuzuklari"ni o'rganish yoshlarda hayotiy xulosalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. "Temur tuzuklari" yoshlar qalbida Vatan oldidagi burchga sodiqlik, do'st va dushmani anglash, matonat, axloqiy va poklik singari sifatlarni shakllantirish uchun zamin yaratadi. Amir Temur siymosi vatanparvarlik, do'stlik, yurtga sodiqlik timsoli sifatida yoshlar ko'z o'ngida har qachon g'aydalanib turadi.

Yosh avlod ta'lim va tarbiyasida Hazrat Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyatidan keng foydalanish ham maqsadga muvofiq. Ma'lumki, Navoiy nafaqat ijodkor, balki amaldor sifatida el osoyishtaligini saqlash, qishloq va kentlarni obodonlashtirish, yoshlarni bilim olishga chorlash uchun amaliy sharoitlar yaratishda tinmas va tolmas tashabbuskor bo'lgan. U o'z asarlarida bu g'oyalarni keng targ'ib etgan. Navoiy asarlaridagi g'oyalar, o'z davrida ilgari surilgan va amalga oshirilgan

tadbirlar mazmun va mohiyatini bugungi kunda yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq tadbirlarda keng qo'llashimiz darkor. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida chin sevgi va vafo, do'stlik va sadoqat, mehnat va ijodkorlik bilan bir qatorda vatanparvarlik hamda qahramonlik g'oyalari keng tarannum etiladi. Doston yoshlar va bolalarga atab yozilmagan, lekin asarning ko'pgina boblari bolalar va yoshlar hayotiga, ularning tarbiyasiga bag'ishlanganligi bilan ahamiyatlidir.

Mashhur ma'rifatparvar, jurnalist, davlat va jamoat arbobi, adib va pedagog Abdulla Avloniy o'zining 1913-yilda yozgan "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobining "Vatanni suymak" deb nomlangan bo'limida shunday yozgan: **"Hammaga ma'lumdirki, eng muqaddas diniy yerimiz o'lan Arabistonga bog'larini, hovlilarini sotub hijrat qilgan hojilarimizning aksari yana o'z Vatnlariga qaytib kelurlar. Buning sababi, ya'ni bularni tortub keturgan quvvat o'z Vatnlarining, tuproqlarining mehr-u muhabbatidur"**.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda xalqimizning turmush tarzi, an'analari, urf-odatlarini uning o'ziga xos va betakror madaniyati, bunyodkorlik, ijodkorlik sifatlari, milliy san'at turlarining ahamiyati beqiyosdir. Bu esa ajdodlar merosini tushunish orqali u bilan faxrlanish uchun jiddiy asos bo'ladigan bilimlarni shakllantiradi.

Polkovnik Mirodil AZIMOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
katta o'qituvchisi

ANDIJON FARZANDI —

OO'MONDON
MAMADALI ALIYEV

Mamadali Aliyev 1907-yilda Andijon shahrida dunyoga kelgan. 1924–29-yillarda o'zi unib-o'sgan shahardagi choyxonalarda ishlab kun ko'rgan. 1929-yildan boshlab Qizil armiya safiga harbiy xizmatga kiradi. Mamadali Aliyev jangovar harakatlardagi muvaffaqiyatlari uchun 1931-yilda "Qizil bayroq" ordeni bilan mukofotlangan. 1933-yilda Lenin nomidagi Toshkent harbiy bilim yurtini tugatib, leytenant harbiy unvoniga ega bo'ladi. Mamadali Aliyev 19-o'zbek tog'-otliq diviziyasi 41-o'zbek otliq polki vzvod komandiri lavozimida bo'lgan.

1937-yil 17-sentabr kuni 19-o'zbek tog'-otliq diviziyasi 41-o'tliq polkida vzvod komandiri Mamadali Aliyev 19-o'zbek tog'-otliq diviziyasi bo'linmalarida "aksimillatchilik tashkiloti" tarkibiga kirganligi va bo'linmalarni aksimillatchilik faoliyatini amalga oshirganlikda ayblanib, Ichki ishlar Xalq Komissarligi (NKVD) maxsus bo'lim xodimi tomonidan nohaq qamoqqa olinadi. Bu vaqtda uning oila a'zolari – turmush o'rtog'i Agrokolxoz instituti mashinisti Marhabo Aliyeva (19 yosh) va Agrokolxoz instituti talabasi, singlisi Halimaxondan iborat bo'lgan.

1937-yil 15-noyabr kuni Aliyevning tergov ishi maxsus bo'lim xodimi tomonidan o'rganilganda, ushbu ayblov bilan yangi shaxslar aniqlanganligi va prosessual kodeksda keltirilgan muddatda tugata ololmasligi tufayli SSSR MIQ oldida tergov muddatini ikki oyga, ya'ni 18-noyabrda tugashi lozim bo'lgan vaqtdan 1938-yil 13-yanvargacha qadar uzaytirilishi yuzasidan tavsiya bilan murojaat qiladi. Shundan so'ng 1938-yil 15-yanvar kuni Markaziy harbiy okrug maxsus bo'lim xodimi tomonidan tergov ishlari hujjatlari o'rganilganda yuqorida qayd etilganidek, ayblov yuzasidan yangi shaxslar aniqlanganligi bois va ularni qo'shimcha ravishda

o'rganishda vaqt talab etilgani uchun tergov ishi muddatini ikkinchi marotaba uzaytirilishi yuzasidan yuqori turuvchi organlarga murojaat etiladi va yana ikki oy muddatga uzaytiriladi.

Aliyevning tergov jarayoni yana bir bor, turli bahonalar, ya'ni "ayblov yuzasidan yangi shaxslar aniqlanganligi" tufayli uchinchi marotaba bir oyga – uchinchi aprelga qadar uzaytiriladi.

1938-YIL 13-YANVAR KUNI Mamadali Aliyev so'roq qilinadi. So'rovda unga 19-o'zbek tog'-otliq diviziyasi tarkibida mavjud bo'lgan aksimillatchilik tashkilotida qatnashgani, aksimillatchilik ruhida shaxsiy tarkibni tarbiyalashda faol ishtirok etib kelganligi, aksilinqilobiy tashkilotning a'zosi bo'lganligi va unda qanaqa faoliyat olib borganligi, Mirsharopov tomonidan aksimillatchilik tashkilotiga rahbar etib tayinlanganligi, diviziya tarkibidagi boshqa millatlarga mansub bo'lgan harbiy xizmatchilarning o'rniga o'zbek harbiy xizmatchilar bilan to'ldirish bo'yicha aksimillatchilik hamda tashviqot-targ'ibot ishlarini olib borganlikda, aksiltashkilot a'zolari bilan 1937-yilda uning uyida noqonuniy ravishda yig'ilib, siyosiy ishlarni izdan chiqarishni amalga oshirishda ishtirok etganlikda va boshqa jiddiy ayblovlar

bilan so'roqqa tutiladi. Mamadali Aliyev esa barcha ayblovlar tuhmat va bo'hton, yolg'on ekanini qat'iy ta'kidlaydi va ayblovlarini rad etadi.

Mamadali Aliyevning "jinoiy ishi" yuzasidan olib borilgan tergov jarayonida bir qator shaxslardan, jumladan 1937-yili sentabr oyida J. Dehqonboyeva, T. Ochilov, B. Qurbonov, X. Zokiryoyevdan yolg'on ko'rsatmalar olinadi. Ushbu jinoiy ish bo'yicha so'rov qilingan shaxslardan, mart oyida S. Yoqubov, sentabr oyida B. Yoqubov, Y. Narimonov, Sh. Bozorboyev, D. Shomirboyev, X. Shukurov, oktabr oyida B. Yoqubov, dekabr oyida T. Azizov, S. Yoqubov, X. Isomuddinov, M. Abdurahimov, M. Mirsharopovning so'roq qilingan bayonnoma ko'chirmalaridan foydalanishadi.

1938-YIL 5-APREL KUNI Mamadali Aliyev tergov davomida Mirkomil Mirsharopov bilan yuzlashtiriladi. Shunda Mirkomil Mirsharopovga Aliyev bilan yuzlashtirishni tashkil etgan IXX maxsus bo'lim vakili "Aliyevni taniysanmi, u bilan shaxsiy adovati bo'lganmi yoki yo'qmi, Aliyev aksilinqilobiy va aksimillatchilik tashkilotlarida a'zosi, kim tomonidan bu tashkilotlarga safarbar etilgani, Markaziy harbiy okrug razvedka bo'limiga nimaga va kim tomonidan Aliyevning nomzodi berilgani, Aliyev xorijiy xizmat safariga borib vazifani to'laligicha ado eta olmaganmi" kabi savollarni o'rtaga tashlaydi. Mamadali Aliyev barcha savollarga rad javobni berib, barchasi tuhmat ekanini ta'kidlaydi.

1938-yili aprel oyida dastlabki tergov jarayoni tugatilganligi haqida Mamadali Aliyevga ma'lum qilinadi. 1938-yil 25-aprel kuni ayblov bo'yicha yakuniy xulosa tasdiqlanib, unga ko'ra Aliyev O'zSSR JKning 52-, 2- va 67-moddalarida belgilangan "jinoiyat ishlari" bilan aybli deb topilib, uning ishi Oliy sudning harbiy hay'atida ko'rib chiqilishi uchun xulosa qilinadi.

1938-yil 23-may kuni Markaziy harbiy okrug prokurorining o'rinbosari tomonidan maxsus bo'lim taqdim etgan tergov ishlari o'rganib chiqilib, chiqarilgan ayblov xulosasi bilan to'liq kelishuvini bildiradi va jinoiy ishni ko'rib chiqish uchun SSSR Oliy sudi harbiy hay'atiga yuborishga qaror qiladi.

Mazkur ayblov qarori SSSR Bosh prokurori yordamchisi tomonidan shu yilning 8-oktabr kuni tasdiqlanadi. Ayblov xulosasida "Aliyev o'ziga qo'yilgan ayblarning birortasini tan olmadi. "Diviziya'dagi aksilinqilobiy va millatchi isyonchi tashkilot rahbarlari va ishtirokchilari" Mirsharopov, Narimonov, Abdurahimov, Yoqubov, Shukurov va

Azizovlarning Aliyevga qarshi ko'rsatgan "ko'rsatmalari" Aliyevni bo'linmadagi tashkilot a'zosi sifatida fosh etdi", deb keltirilgan, shundan keyin u O'zSSR JKning 57-2, 64- va 67-moddalarida keltirilgan jinoiy ishlar bilan aybli deb topiladi.

SSSR Oliy sudi harbiy hay'atining 1938-yil 4-15-oktabr kunlaridagi sayyor majlisida Mamadali Aliyevga yuqorida keltirilgan "jinoiy ish" bo'yicha ishni qabul qiladi. 1938-yil 9-oktabrda SSSR Oliy sudi harbiy hay'atining sayyor majlisi kotibi tomonidan Aliyevga dastlabki ayblov qarori va hukm yetkaziladi.

1938-YIL 10-OKTABRDA bo'lib o'tgan SSSR Oliy sudi harbiy hay'ati sayyor yig'ilishida Mamadali Aliyev ishi soat 14. 55 – 15. 15 gacha davom etadi. U o'zini aybdor sanamasligini hamda o'zi kabi qamoqqa olingan hamkasblari bergan ko'rsatmalarini ham rad etishini sud hay'atiga ma'lum qiladi. Shuningdek, u antisovet, millatchilik tashkilotining a'zosi emasligini, u hech qachon burjua-millatchilik tuyg'ulariga ega bo'lmaganligi, antisovet yig'ilishlarida qatnashmaganligini ta'kidlaydi. Sudda Aliyev oxirgi so'zida "mening tergov ishim hujjatlarini astoydil qayta tekshiruvini o'tkazish zarur", deb murojaat qiladi. Ammo uning aytganlarini sud hay'ati inobatga olmasdan Mamadali Aliyevni O'zSSR JKning 57-2, 64- va 67-moddalari bo'yicha "aybdor" deb topadi va leytenant harbiy unvonidan mahrum etilib, mol-mulkini musodara qilish bilan otuv jazosiga hukm qilinadi, hukm shu kunning o'zida ijro etiladi.

1956-yil 19-noyabrda Bosh harbiy prokuror yordamchisi Proshko tomonidan Aliyevning jinoiy ishi qo'shimcha ravishda tekshiruv asosida RSFR PKning 373- va 377-moddasiga asosan Mamadali Aliyevga 1938-yil 10-oktabrda chiqarilgan hukm bekor qilinishi, jinoiy ish esa tugatilishi haqidagi tayyorlagan xulosani 23-noyabr kuni SSSR Bosh prokurorining o'rinbosari tomonidan tasdiqlatib, "jinoiy ish"ni rad etish bo'yicha xulosani SSSR Oliy sudi harbiy hay'atida ko'rib chiqilishi yuzasidan tavsiya qiladi.

1957-yil 20-iyul kuni SSSR Oliy sudi harbiy hay'ati Mamadali Aliyevning ishini qayta ko'rib chiqadi va Aliyevga nisbatan 1938-yil 10-oktabrda tasdiqlangan ayblarni bekor qilib, "jinoiy ish" tarkibining yo'qligi tufayli tugatilganligi haqida qaror qabul qiladi.

1957-YIL 20-IYUL KUNI Aliyevning reabilitatsiya bo'lganligi haqida uning yaqinlariga xabar berish uchun Turkiston DXK (KGB) maxsus bo'limiga so'rovnoma yuboriladi. So'rovnomaga javoban Aliyevning yaqinlari haqida ma'lumot yo'qligi tufayli reabilitatsiya va musodara qilingan mol-mulk haqidagi ma'lumotnomani yetkazishning imkoni yo'qligi ma'lum qilinadi.

Shundan so'ng 1967-yil 23-may kuni SSSR Oliy sudi harbiy hay'ati O'zSSR ZAGSga murojaat qilib, Aliyevning o'limi haqidagi ma'lumotni tasdiqlab, Toshkent shahri, Kirov rayoni (*hozirgi Yunusobod*), I liniya Kislovodskaya ko'chasi, 18-uyda istiqomat qilib kelgan turmush o'rtog'i Marhabo Axmadjonovaga yetkazilishi so'raladi. Ma'lumotnoma yuqorida qayd etilgan manzil bo'yicha Aliyevning turmush o'rtog'iga yuboriladi.

**Polkovnik Akmal ORTIQOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
harbiy xavfsizlik va davlat
mudofaasi fakulteti boshlig'i,
dotsent**

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillarida qabul qilingan mamlakatimiz Konstitutsiyasi ushbu davrlarda erishgan yutuqlarimiz hamda amalga oshirilgan islohotlarimizning huquqiy asosi sifatida xizmat qilib keldi.

QONUNIYLIKNI TA'MINLASH MEZONI

Bugungi kunda davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar o'zgarib bormoqda. Fuqarolarimizning siyosiy va huquqiy ongi oshmoqda, Davlat organlari faoliyati ochiqlik va oshkoralik asosida amalga oshirilmogda, davlat tashkilotlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik va jamoatchilik nazorati yangi bosqichga ko'tarilmogda. Ta'kidlash joizki, davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan jadal islohotlar hamda jamiyatimizdagi bunday tub o'zgarishlar natijasida Yangi O'zbekistonning bugungi zamon bilan hamnafas bo'la oladigan huquqiy asoslarini yaratishga qaratilgan konstitutsiyaviy islohotlarga kuchli ehtiyoj sezildi.

Shu asosda mamlakatimizda davlatimiz rahbari boshchiligida Yangi O'zbekistonning konstitutsiyaviy huquqiy asoslarini takomillashtirish maqsadida konstitutsiyaviy islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlarda ilgari amal qilib kelingan "davlat - jamiyat - inson" tamoyili "inson - jamiyat - davlat" deb bosh g'oya sifatida o'zgartirildi.

Inson - jamiyat - davlat munosabatlarida inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlar ustuvor ahamiyat kasb etsa-da, fuqarolarning burch va majburiyatlari ham ushbu munosabatlarda mutanosiblikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ya'ni fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari hamda burch va majburiyatlari o'zaro munosabatlarda muvozanatni ta'minlovchi yagona tizimni tashkil etadi. Shu asosda fuqarolarning burch va majburiyatlariga taalluqli bo'lgan konstitutsiyaviy normalar ham bugungi zamon talablari bilan hamnafas holda o'zgartirildi. Xususan, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 61-moddasida tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinishi, 63-moddasida soliq va yig'imlar adolatli bo'lishi hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilmasligi kerakligi haqidagi muhim qoidalar o'z ifodasini topdi.

Qomusimizning o'ziga xos jihatlaridan biri fuqarolarning ham, davlatning ham o'zaro huquqlar va burchlar orqali uzviy bog'langanidir. Shunday ekan,

fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishlari boshqa fuqarolarning hamda davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlariga zid bo'lmasligi lozim.

Amaldagi qonunlar Konstitutsiya asosida fuqarolarga berilgan huquqlar bilan bir qatorda tegishli burchlarning bajarilishi lozimligini qayd qiladi. Masalan, protsessual qonunchilikda fuqarolarga erkin huquq tamoyillari bilan bir qatorda, shu huquqlarni asoslash, tasdiqlash, isbotlash, bahslashish (*munozara*) qoidasiga rioya qilgan holda amalga oshirish lozimligi ham belgilangan. Demak, huquq bor joyda burch ham bo'lishi zaruriy talab bo'lib jamiyatda shaxsning tutgan o'rni, mavqeyi faqat huquq bilangina emas, shu bilan birga burch bilan ham belgilanadi.

Har bir fuqaroning qonunda belgilangan huquqlarini bajarmasligi muayyan oqibatlarini keltirib chiqaradi. Bu ularda qonunlarni bajarish mas'uliyatini oshiradi. Fuqaro berilgan erkinlik bilan bir qatorda o'ziga yuklatilgan mas'uliyatni ham sezishi zarur.

Fuqarolarning asosiy burchlari Konstitutsiya va boshqa qonunlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ularda fuqarolar Konstitutsiyaga rioya qilish bilan birga undagi har qanday qoidalar buzilishining oldini olishi, boshqa shaxslarning qadr-qimmatini hurmat qilishga majbur ekanligi o'z ifodasini topgan.

Har bir fuqaro o'zlariga yuklatilgan burchlarini bajarish vaqtida qonunlarga rioya qilishi, jamiyatning turmush qoidalarini va ma'naviy qadriyatlarini hurmat qilishi lozim.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasida ilgarigi davrlardagi Konstitutsiyalardan farqli ravishda nisbatan kamroq burchlar belgilangan bo'lib, ko'proq inson huquq va erkinliklariga e'tibor qaratilgan.

Jumladan, inson hamda fuqarolarning huquq va erkinliklariga 34 ta modda bag'ishlangan bo'lib, ular Konstitutsiyamizning VII bobi (*Shaxsiy huquq va erkinliklar*) 25-35-moddalari, VIII bobi (*Siyosiy huquqlar*) 36-40-moddalari, IX bobi (*Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar*) 41-53-moddalari va X bobi (*Inson hamda fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolati*) 54-58-moddalarida mustahkamlab qo'yilgan.

Inson va fuqarolarning burch va majburiyatlariga esa 5 ta modda bag'ishlangan bo'lib, ular Konstitutsiyamizning XI bobi (*Fuqarolarning burchlari*) 59-64-moddalarida o'z ifodasini topgan bo'lib, ularda asosan fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarini bajarishi, qonunlarga rioya etishga, boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi, O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi, atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi, qonun bilan belgilangan soliqlar va yig'imlarni to'lashi va Vatanni himoya qilishi lozimligi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham Konstitutsiya hamda boshqa qonunlar va xalqaro shartnomalar bilan belgilangan burchlarini bajarishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning har bir fuqarosiga Konstitutsiya va qonunlarda berilgan huquqlar bilan bir qatorda burchlar ham yuklatilishi va ularning o'z vazifasi hamda burchlarni astoydil bajarishi qonuniylikni mustahkamlash uchun muhim mezon sifatida xizmat qiladi.

Murod CHORIYEV,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig'i, y.f.d., professor



GITARA, MARSH, CHIROQCHI

“O‘ZBEKISTON MARSHI” VA
BIR QO‘SHIQ TARIXI

1991-yil. Mustaqillik. Endi repertuar to‘liq davlat tilida tayyorlanishi kerak edi. Harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi eng birinchi qo‘shiq “O‘zbekiston marshi” deb nomlanib, uni badiiy rahbarimiz Shuhrat Umidjonov yozgan. “O‘zbekiston, O‘zbekiston! Dunyoga chiq, dunyoga” degan naqorati bor edi. Sh.Umidjonov bu qo‘shiqni “Aytib ko‘ring-chi”, deya menga topshirdi. O‘zbek tilida ilk bor shu tarona bilan sahnaga chiqqanman. So‘ng “Harbiylar”, “Ona yurt”, “Elimiz bayrog‘i”, “Mardlar safidaman”, “Askar” kabi sevimli qo‘shiqlar yaraldi. “Bobolarim”, “Turnalar” va “Ona haqidagi ballada” kabi ijodiy namunalarimiz ham keng omma orasida yuksak e‘tirof va e‘tibor qozondi. Ahamiyatli jihati, bu ohanglar zamirida navqiron avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ezgulik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadi bor.

Respublika estrada qo‘shiqlari tanlovida, umumarmiya harbiy qo‘shiqlar festivalida “Yagonasan, muqaddas Vatan” nomli qo‘shig‘im bilan 1-o‘ringa sazovor bo‘lganim yodimda. Oradan yillar o‘tib, o‘zimni mana shu harbiy qo‘shiqlar festivalining Termiz garnizoni bosqichiga hakam sifatida chaqirishdi. Shu tadbirda Kakaydi qo‘rg‘onidagi harbiy qism orkestri sahnaga ko‘tarilib, o‘z qo‘shig‘ini boshladi: “Bayrog‘ing boshingda hilpirar, porlagay istiqloq mash‘ali...” va u 1-o‘ringa loyiq topildi. Orkestr rahbari serjant Ernazar Aralov (*u bilan haligacha ko‘rishib turamiz*)dan ashulaning hamma partiturasini, klavirlari, she‘rini so‘radim va ekspert darajasida qayta jonlantirish taklifini aytdim. U rozi bo‘ldi. Toshkentga qaytgach, orkestr bilan chalgan fonogrammalarini ham eshitdim. O‘sha payti xayolimga yangi fikr keldi: kuy va ohangini zamonaviy cholg‘u asboblari o‘tkazdim (*hali unda xor ham yo‘q edi*), badiiy sayqallab, ovozinga mosladim va studiyada yozdim. Yangi hayot bag‘ishlangan, asosi Kakaydidan chiqqan ashulani 2002-yili Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan ilk bor “Turkiston” san‘at saroyida ijro etdim. Shundan beri u hamma harbiy qismlarimizda aytiladigan sevimli hirgoyiga aylandi.

Mingta qo‘shiq chiqqaningiz bilan askarlarga yoqsagina uni doim ko‘ngliga muhrlab aytaveradi. Yoqmasa, harbiycha buyruq bilan majburlab yodlatilgan taqdirda ham tez orada unutiladi.

“CHIROQCHILIKMAN!”

– **Marat Ahmedovich, rusiyzabon bo‘la turib, sof o‘zbekcha xonishlarni maromiga yetkaza olasiz. Bu tilni qanday o‘rganganiz?**

– Otam Boshqirdiston, onam Rossiyaning Penza viloyatida tug‘ilgan bo‘lsa-da, urush yillaridan keyin men 1957-yili 30-mart kuni taqdir taqozosi bilan Qashqadaryo viloyati Chiroqchida dunyoga keldim, qishloqda o‘sdim. Mart oyida tug‘ilganim uchun “Marat” deb ism qo‘yishgan. Qo‘shnilar, jamoadoshlarim

o‘zbek va shunday davrada ulg‘ayganman. Bu tilda og‘zaki gapirish boshqa masala, lekin ashula kuylaganda, adabiy til me‘yorlaridan kelib chiqib talaffuz qilish shart. Avvalboshda bu menga oson bo‘lmagan. Qo‘shiq yozishdan oldin she‘rini badiiy rahbar, hofizlarga aytib, talaffuzimdagi xatolarimni tuzatar edim. -K bilan -q, -u va -o‘ kabi tovushlarni nutqimda o‘z joyiga qo‘ygandan keyingina taronani yozishga kirishar edim. Tinimsiz mashqlar besamar ketmadi, uddaladim.

Umuman, to‘rt aka-uka (*Ruslan, Erkin, Mars, men – eng kenjasiman*) hammamiz shu yurtda, Chiroqchi tumanida tug‘ilganimiz uchun o‘zbek tili bizga begona emas. Hatto to‘ng‘ich akam O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetini bitirib, nafaqaga qadar shu muassasada talabalarga tildan saboq berdi.

Otam Ahmed Hakimov Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi va 12 yoshida hayotdan ko‘z yumgan. Chiroqchi tumani qabristonida dafn etilgan. Validam salkam umrining adog‘iga qadar yuqumli kasalliklar shifoxonasida hamshira bo‘lib ishlagan. To‘g‘ri, keyinchalik onam, akalarim bilan poytaxtga ko‘chib kelganmiz. Ammo qarindoshlar, sinfdoshlarim Chiroqchida bo‘lgani bois, kindik qonim to‘kilgan muqaddas go‘shaga har yili borib, otamni ziyorat qilaman, tanishlarim diydoriga oshiqaman.

“HAYOTIM – HARBIY SAN‘AT”

Iste‘fodagi podpolkovnik Marat Hakimov Mudofaa hamda Madaniyat vazirliklari tomonidan qator tarmoq mukofotlari bilan taqdirlangan. Butun mehnat faoliyati mobaynida respublikamizning barcha viloyat, shahar va tumanlarida konsert dasturlari orqali jozibador qo‘shiqlari bilan o‘zbek musiqa san‘ati rivojiga munosib hissa qo‘shmoqda. Shu bilan birgalikda harbiy axloq-odob qoidalarini o‘zida saqlab qolgan. Uning yakka-yu yolg‘iz o‘g‘li Temur Hakimov ham ota kasbini tanlab, yoshlar teatrida musiqachi bo‘lib ishlaydi.

Qahramonimiz Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida ma‘naviy-ma‘rifiy va madaniy tadbirlarni tayyorlash va o‘tkazish, xonandalik yo‘nalishi bo‘yicha ko‘plab yosh mutaxassislarni tarbiyalashda ham faol. Hozirgi kunda ulg‘ayib kelayotgan yosh ijodkorlarga katta tajriba sohibi sifatida har tomonlama namunadir. Xususan, yoshlarning badiiy-estetik didi, madaniy saviyasini yuksaltirish yo‘lida salmoqli ishlarni olib bormoqda. Nodir iste‘dod egasi diyorimizda har yili an‘anaviy tarzda nishonlanadigan Vatan himoyachilari kuni, Navro‘z bayrami va boshqa tadbirlarda o‘z repertuariga kiritilgan yangi qo‘shiqlarni ijro etib kelmoqda.

Marat Hakimov 1980–1989-yillarda 13 marta qo‘shni Afg‘oniston Respublikasi jang maydonlarida o‘zining baynalminal xizmat burchini o‘tagan harbiy xizmatchilarimiz o‘rtasida konsert dasturlarini tashkillashtirib, ularni ruhan qo‘llab-quvvatlab turgan.

– Harbiy san‘at hayotimga aylandi, – deydi suhbatdoshimiz. – Bolaligimdan musiqa olamiga kirib, hozir ham harbiy qo‘shiqlar ichida yashayman. Ularsiz o‘zimni tasavvur qila olmayman. Zamonaviy texnologiyalar qanchalik rivojlanmasin, vujudga vatanparvarlik tuyg‘usini har bir hujayrangacha junbushga keltira oladigan jonli taronalar o‘rnini hech narsa bilan to‘ldirib bo‘lmaydi. Shu yo‘lda tun-u kun izlanib, zahmatli mehnatimiz mevasini jonajon xalqimizga tuhfa etishdan hamisha g‘ururlanaman.

**Katta leytenant
Dilshod RO‘ZIQULOV,
“Vatanparvar”**

Suratda siyosiy aks etib turgan bu insonning qo‘shiqlarini eshitmagan gazetxonimiz bo‘lmasa kerak. U o‘zining serqirra ijodi, noyob iste‘dodi va yuksak mahorati bilan nafaqat yurt posbonlari, balki xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan. 68 yosh ostonasida turgan qahramonimizning hayoti, harbiy xizmati va san‘at olamidagi faoliyati xususida qiziqarli voqealar ko‘p. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Markaziy ashula va raqs ansambli vokal-xor guruhi oliy toifali artisti Marat Hakimov bilan kechgan maroqli suhbatni e‘tiboringizga havola etamiz.

QO‘LBOLA ELEKTROGITARA

Artist bo‘lish orzusi menga 5-sinfligimdayoq tinchlik bermagan. Ota-onamga gitara olib beringlar, deb holi-joniga qo‘ymaganim yodimda. Maktab, tuman, viloyat bayramlarida, turli tanlovlarda qo‘shiq aytib qatnashganman.

1972-yili elektrogitara paydo bo‘ldi. Uni sotib olishga pul yo‘qligi uchun o‘zim yasashga kirishdim. Taxtani arra bilan qirg‘dim. Grifini qo‘lda tayyorlash imkonsiz, chunki unga aniq hisob-kitob kerak. Shu bois oddiy eski gitaramning grifini olib, taxtaga o‘rnatdim. Ikkita joyini o‘yib, ovoz sozlagich qo‘yib, axiyri haqiqiy elektrogitara ovozi chiqara oldim. Shu bilan Chiroqchida birinchi marta mening qo‘lim bilan yasalgan elektrogitara paydo bo‘ldi.

1974-yili maktabni bitirib, Toshkent teatr institutiga o‘qishga kirish imtihonidan “yiqildim”. Chiroqchiga qaytdim. 18 yoshga to‘lishimiz munosabati bilan 1975-yilning boshida tuman mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i 40 nafar yigitni yig‘ib, hammamizni 2 yillik muddatli harbiy xizmatga ketishimiz haqida ogohlantirdi. Armiyaga kuzda ketilishi va unga qadar avtomaktabda haydovchilik kursida o‘qib, guvohnoma olishimiz kerakligini aytdi. Iyulda o‘quv kursini bitirib, omadimni yana sinash maqsadida Toshkentga borib, hujjat va imtihon topshirdim. Ne baxtki, o‘zim o‘qishni orzu qilgan institut talabasiga aylandim. Shu sababli muddatli harbiy xizmat kechiktirildi. O‘qish davrida mashg‘ulotlar, turli ko‘rik-tanlovlarda iste‘dodim charxlandi. 1980-yilning yozida diplomimni olib, ishga joylashish maqsadida Turkiston harbiy okrugi ashula va raqs ansambli boshlig‘iga

uchradim. U yerda mendan boshqa nomzodlar ham bor edi. Ansambli boshlig‘iga gitara jo‘rligida bir qo‘shiq ijro etdim. Yana bitta aytirdi va ishga qabul qilindim.

HARBIY XIZMATGA YO‘L

1980-yilning yozida ish boshlab, kuzida muddatli harbiy xizmatga chaqirildim. Ansamblimiz joylashgan harbiy okrug ofitserlar uyi men bilan qo‘shib hisoblaganda 40 nafar askarning xizmat joyi etib belgilandi. Askarlik davrida harbiy okrug tasarrufida bo‘lgan O‘zbekiston va Turkmanistonning harbiy qism, muassasalarida, hatto Afg‘onistondagi olis hududlarida ansambli safida konsertlar o‘tkazdik. Oliy ma‘lumotli bo‘lganim uchun bir yarim yil xizmat o‘tadim. So‘ng mehnat faoliyatimni davom ettirish chog‘i boshlig‘imiz – dirijyorimiz harbiy xizmatga kontrakt tuzish taklifini bildirdi (*san‘atdagi ijrom yoqqan bo‘lsa kerak*). Bundan xursand bo‘lib, 6 yillik shartnomani imzoladim. Shu tariqa haqiqiy harbiy xizmatim boshlandi.

1983-yildan 2012-yilgacha Qurolli Kuchlar safida xizmatda bo‘ldim. Bu qarorimdan hech ham afsuslanmayman. Chunki davlat tomonidan poytaxti azimda uy bilan ta‘minlandim. Turmush o‘rtog‘im bilan farzand voyaga yetkazdik. 1988-yili “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” faxriy unvoni, 2006-yili “Shuhrat”, 2017-yili “Sodiq xizmatlari uchun” medallari bilan mukofotlandim. Nafaqaga chiqqach, 2012-yildan hozirgi kunga qadar iste‘fodagi podpolkovnik sifatida Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli xalqimizga baqamti xizmat qilyapman.

Vatanparvarlik oyligi

XALQ VA ARMIYA

Tinch, osuda hayotimiz qo'riqchilari sharaflanadigan, Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining 33 yilligi munosabati bilan "Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!" shiori ostida tashkil etilgan vatanparvarlik oyligi Termiz shahrining markaziy ko'chalari bo'ylab harbiy orkestrning musiqiy sadolari ostida o'tadigan harbiy parad bilan boshlandi.

BIR TAN-U BIR JON!



Shu kuni Surxondaryo viloyati hokimligi, Janubiy operativ qo'mondonligi, viloyatdagi kuch tuzilmalari harbiy xizmatchilari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, harbiy xizmatchilarning oila a'zolari va Qurolli Kuchlar faxriylari, yoshlar hamda keng jamoatchilik ishtirok etgan tadbir qatnashchilari Termiz shahridagi "Vatanparvarlar" bog'ida saf tortdi.

Tadbirning rasmiy qismida so'zga chiqqan podpolkovnik Davron Abdurahimov va boshqa mas'ullar

Qurolli Kuchlarimizning shakllanish yillari, shu kungacha amalga oshirilgan islohotlar haqida gapirdi. Vatanimiz tinchligi va xavfsizligini ta'minlashning ishonchli kafolati bo'lgan Qurolli Kuchlarimiz qudratini yanada oshirishga qaratilayotgan bunday yuksak e'tibor sabab harbiy kasb nufuzi oshgani, yoshlar o'rtasida bu kasbga havas ortganini, endilikda ota-onalar farzandlarining armiya saflarida xizmat qilishini sharaf deb bilayotganini, umuman olganda armiyada olib borilayotgan

izchil islohotlar xalq va armiyani yaqinlashtirganini alohida ta'kidlashdi. Shu bilan birga bugun o'sib kelayotgan yosh avlodni harbiy xizmatchilardek dovyurak, botir, jonajon yurtimiz mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilishga qodir etib tarbiyalash shu yurtda umrguzaronlik qilayotgan yosh-u qarining muqaddas burchi ekani qayd etildi.

Tadbir doirasida zamonaviy milliy armiyamizning kuch-qudratini namoyon etuvchi harbiy texnika va qurol-aslahalar

ko'rgazmasi, timbiling va boshqa sport bellashuvlari, psixologik treninglar o'tkazildi. Harbiy xizmatchilarning qo'ljangi va faxriy qorovulning ko'rgazmali chiqishlarini tomoshabinlar gulduros qarsaklar bilan qarshi oldi. Harbiy orkestr jamoalarining Vatan, tinchlik va farovon hayot tarannum etilgan kuy-qo'shiqlari esa barchaga bayramona kayfiyat ulashdi.

Mayor Alisher ERGASHOV
Termiz garnizoni

Faxriylar ibratlari

"OTANGGA RAHMAT!"



SIYLOVIGA MUSHARRAF O'G'IL

Ahmadxo'jayevlar sulolasi haqida "Umr mazmuni" degan yupqagina kitobchani o'qiganim bor.

Ma'rufxo'ja, Tursunxo'jalar hayoti va faoliyati ibratli. Tanish-bilishlari-ku, buni yaxshi bilishadi, risolani o'qiganlar ham bunga amin bo'lmoqda.

Ma'rufxo'ja haqida ikki og'iz.

Ma'rufxo'ja 1896-yili Namangan shahrida tavallud topgan. Hozirgi bolalarni bilmadim-u, ammo ilgari o'g'il bola dunyoga kelib, oz-moz aqlini tanigach, o'zini ishga urgan. Ko'nglida otamning og'irini biroz yengil qilib, oila aravasini tortishda ko'maklashay, deb harakat

qilishni boshlagan. Otaning og'irini yengil qilishga harakat qilish yaxshi maqsad, yaxshi intilish. Agar azaliy qadriyatga hamma birdek amal qilganda edi, dunyoda otalarga og'ir ish qolmas edi, deb o'ylaysan kishi.

Ma'rufxo'ja hamma qatori maktabda o'qidi. Keyin moliya sohasida bilim olib, bir muddat ishladi. Yaratgan Ma'rufxo'janing ko'ngliga bog'-

rog'lar yaratish ishini jo etgani bois uzoq yillar o'rmonchilik sohasida fidokorona mehnat qildi. Eng muhimi, el-yurt nazariga tushdi.

Endi uning o'g'li Tursunxo'ja haqida ikki og'iz.

Tursunxo'ja 1924-yilning 28-yanvarida dunyoga keldi. Chaqaloq bor-yo'g'i olti oy ona mehri qondi, xolos. To'tixon aya unga o'z onasiday mehr berdi, suydi, erkaladi, katta qildi. Tursunxo'ja ham To'tixon ayani tug'gan onasidek jonidan ortiq yaxshi ko'rardi. Aya 82 yoshlarida olamdan o'tdi. Butun umr o'g'lining e'zozida bo'ldi.

Bu yil tavallud topganiga 100 yil bo'lgan Tursunxo'janing peshonasiga harbiy bo'lish bitilgan ekan. Urush yillarida shu sohada o'qidi, ofitser bo'ldi. Harbiylar polkovnik bo'lishni orzu qilishadi. Ammo u davrlarda hamma ham bu unvonga yetisholmasdi. Tursunxo'ja polkovnik unvoniga ega bo'lgan baxtli ofitserlardan. Eng muhimi, halol xizmat qildi, el-yurt nazariga tushdi.

Kezi keldi, vatanparvarlik borasida ba'zi fikrlarimni o'rtoqlashsam. Bu bor gap, hech kimni hech qachon vatanparvar qilib tayyorlab bo'lmaydi. Bu borada suhbatlar o'tkazish mumkin, saboqlar berish mumkindir. Biroq bu suhbatlarni, saboqlarni tinglagan kishi o'z-o'zidan vatanparvar bo'lib qolmaydi. Vatanparvar bo'lish uchun, eng avvalo, fikri amali bir bo'lishi kerak, shu bilan birga onaparvar, otaparvar bo'lishi kerak, kishi. Onasini, otasini ranjitgan odamdan hech qachon vatanparvar chiqmaydi.

Biz Tursunxo'jani vatanparvar deb ta'rifiyotgan

bo'lsak, u kishi, eng avvalo, onasini boshiga ko'tardi, otasini qattiq hurmat qildi...

Endi Tursunxo'janing o'g'li Zohid Ahmadxo'jayev haqida ikki og'iz.

Bu kishini Qurolli Kuchlar qo'shinlarida xizmat qilayotgan ko'pchilik yaxshi taniydi. Sulolaning davomchisi Qurolli Kuchlarimizning tiklanishi, rivojlanishiga katta hissa qo'shgan iste'fodagi polkovnik Zohid Ahmadxo'jayev mudofaa ishlari bo'limi va boshqarmalarida ko'p yillar xizmat qilgan.

Ustoz ofitser o'rta bo'y, bug'doyrang, sochlariga oq tushgan. Birovga tik qaramaydi. Gapirganda o'ylab, sekin gapiradi. Harakatlari chaqqon. Yigitlarga o'xshaydi. Biroq yillar o'z so'zini aytgan...

Ofitser Zohid Ahmadxo'jayev otasi xizmat qilgan joylarda xizmat faoliyatini olib bordi. Taqdir ekan-da, tuman yoki viloyatda bo'ladimi, ko'pchilik Zohid akani ko'rishi bilan "Sen Tursunxo'janing o'g'limasmisan?" deb so'ragan. Bunday savol berishning sababi bor, albatta. Zohid aka quyib qo'ygandek otasiga o'xshaydi. U kishi otasi haqida mehr va sog'inch bilan gapiradi:

– Akalaring, ukalaring o'z o'rnini topgan. Bundan xursandman. Sen mening harbiy libosimni kiygan, yelkangga yulduz "qo'ngan" o'g'limsan. Izimdan kelyapsan. Ortda qolmaslikka harakat qil! Ortda qolmasligingga ishonaman, dedi bir kuni dadam.

Sen ishlayotgan dargohga yetti yoshdan yetmish yoshgacha odamlarning ishi tushadi. Bilib qo'y, biror kasning ko'ngli ranjimasligi kerak. Ana

shu o'g'itni mahkam tutganman, bu gaplar hozirgacha qulog'im ostida eshitiladi.

Iste'fodagi polkovnikni yoshlar bilan uchrashuvlarda, rasmiy yo norasmiy tadbirlarda ko'p uchratganman. Oila, farzand tarbiyasi haqidagi fikrlari, yurtga sadoqat, vatanparvarlik, harbiy xizmat haqidagi voqeiy hikoyalarni ko'pchilik jon qulog'i bilan tinglaganiga guvoh bo'lganman.

– Dadam tufayli Zamiramni topganman. Unga uylangan yilim Buxoroda xizmat qilardim. Dadam kelib, "Ishlar qalay?!" deb so'radi. Yaxshi, dedim. Yaxshi bo'lsa, yanayam yaxshilaymiz, dedi. Endi, o'g'lim, yashash tarzingizni o'zgartirishimiz kerak. Qani, oldimga tushing, dedilar. Shunday qilib, to'y bo'ldi, uylanib ham oldim. Farzandlar ko'rdik, xudoga shukr. Qayerda xizmat qilgan bo'lsam, Zamiraxon mening yonimda bo'ldi. Ichki ishlar organlarida xizmat qilgan turmush o'rtog'im ham podpolkovnik unvoni bilan pensiyaga chiqqan. Kezi kelganda, aytib qo'yay, yoshlar o'ziga turmush o'rtoq tanlashda yanglishmasligi kerak. Bu ishda keksalarning gapiga ham quloq solish kerak, albatta. O'zimdand qiyos, baxtliman, – deydi Zohid aka mamnun bo'lib.

Otasining izidan yurgan iste'fodagi polkovnik Zohid Ahmadxo'jayev "Otangga rahmat!" degan alqovga munosib inson. Balki bizga aytmagan bo'lsa-da, bu so'zlarni xizmat davomida ko'pchilikdan eshitgan bo'lishi tabiiy, albatta.

Iste'fodagi podpolkovnik
Abdurazzoq OBRO'YEV,
O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan jurnalist



O'zbek xalq dostonlari, xususan Go'ro'g'li dostoni milliy madaniyat va ma'naviyatning ajralmas qismi bo'lib, undagi axloqiy-ruhiy qadriyatlar harbiy xizmatchilar ongida barqarorlikni shakllantirish uchun muhim manba hisoblanadi. Ushbu doston asrlar davomida xalqning o'z dunyoqarashi, ma'naviy fazilatlarini va orzu-intilishlarini aks ettirib keladi.

GO'RO'G'LI DOSTONIDA AXLOQIY QADRIYATLAR

O'zbek xalq dostonlari xalqimizning tarixiy tajribasi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari, hayot falsafasi va orzu-umidlarini yuksak badiiy shaklda namoyon etadi. Go'ro'g'li dostoni ushbu durdonalar orasida alohida o'rin tutadi, chunki u nafaqat o'zbek milliy madaniyatining boyligini, balki xalqning hayotiy qadriyatlarini, jumladan vatanparvarlik, jasorat, birlik va adolat tamoyillarini o'zida mujassamlashtiradi. Bu doston faqat badiiy asar emas, balki ruhiy tarbiya vositasi va milliy o'zlikni anglash manbasi sifatida ham e'tiborga loyiqdir.

Dostonda Go'ro'g'li obrazi orqali vatanparvarlikning oliy namunasi tasvirlanadi. U Vatani, xalqi va o'z yerini himoya qilish yo'lida barcha kuchini sarflaydi. Bu qahramon timsoli har bir o'zbek yoshida vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otadi. Xususan, harbiy xizmatchilar uchun Vatan himoyasi ularning asosiy vazifasi ekanini yana bir bor eslatib turadi. Go'ro'g'li uchun Vatan g'oyasi nafaqat geografik hudud, balki bu xalqqa bo'lgan cheksiz sadoqat va muhabbatni ham ifodalaydi.

GO'RO'G'LI va uning safdoshlarining janglarda ko'rsatgan jasorati dostonning eng muhim g'oyaviy elementlaridan biridir. Qahramonlar o'zlarining mardligi, sabr-bardoshi va kuch-g'ayrati bilan xalqni himoya qilishda namuna bo'lishadi. Bu tasvirlar harbiy xizmatchilar uchun katta ahamiyatga ega, chunki ularning xizmat faoliyati ko'pincha og'ir sinovlar va chidamlilikni talab qiladi. Go'ro'g'li dostoni qahramonlarining jasorati harbiy xizmatda zarur bo'lgan iroda va matonatni mustahkamlashda ulkan rol o'ynaydi.

Dostonda qahramonlar o'rtasidagi birdamlik, jamoaviylik va o'zaro yordam tamoyillari alohida o'rin tutadi. Har bir jang yoki sinovda Go'ro'g'li va uning safdoshlarining bir-birini qo'llab-quvvatlashi, birdamlikka intilishi ularning muvaffaqiyatining asosiy omili bo'ladi. Bu tasvirlar harbiy jamoalarda birlik va jamoaviylikni mustahkamlash uchun ulkan psixologik asosdir. Shu orqali harbiy xizmatchilar jamoaviy ruh va hamkorlikning ahamiyatini yana bir bor his qiladi.

Dostonda Go'ro'g'li nafaqat jangchi, balki adolatparvar rahbar sifatida tasvirlanadi. U xalq manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadi, o'z qarorlarida adolat tamoyillariga qat'iy rioya qiladi. Ushbu sifatlar harbiy xizmatchilarning rahbarlik va boshqaruv faoliyatida halollik va mas'uliyatni namoyon etishlariga ilhom beradi. Adolatparvarlik va halollik harbiy xizmatda eng muhim qadriyatlardan biri hisoblanadi, chunki ular jamiyat ishonchini mustahkamlaydi.

VATANPARVARLIK inson qalbidagi eng ulug' fazilatlaridan biridir. Bu tuyg'u yurtga bo'lgan muhabbat, uning mustaqilligi, tinchligi va farovonligi yo'lida fidokorona xizmat qilishni anglatadi. Go'ro'g'li va uning safdoshlarining asosiy harakat motivatsiyasi ham aynan shu yuksak tuyg'uga asoslanadi. Ular Vatanni himoya qilishda o'z hayotlarini xavf ostiga qo'yib, bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashadi. Kurash nafaqat jang maydonidagi g'alabalarni, balki xalqning tinch va osuda hayotini ta'minlash maqsadini ham ko'zlagan.

Go'ro'g'li va uning safdoshlarining jasorati, ular ko'rsatgan matonat

harbiy xizmatchilar uchun vatanparvarlikning oliy namunasi sifatida qabul qilinadi. Ularning har bir harakati, nafaqat jang maydonidagi shijoat, balki o'z xalqining kelajagi, ona zaminning ravnaqi uchun belgilangan mas'uliyatni aks ettiradi. Ular uchun Vatan tushunchasi oddiy hududiy birlik emas, balki ona yurtidan tortib, millatning qadriyatlari, tarixi va madaniy merosini himoya qilish mas'uliyatidir. Bu namunalar bugungi kunda ham harbiy xizmatchilar uchun ruhiy va ma'naviy tayanch vazifasini o'tashi mumkin. Go'ro'g'lining o'z Vatanga bo'lgan muhabbatini ifodalovchi har bir qahramonlik ko'rsatkichi har bir fuqaroning qalbida o'z yurtiga nisbatan cheksiz sadoqat va minnatdorlik hislarini uyg'otadi. Vatanparvarlik bugungi zamonning murakkab sharoitlarida ham har bir kishining burchi sifatida namoyon bo'lib, yosh avlod tarbiyasida, ularning Vatanga bo'lgan muhabbatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

JASORAT ham insonning eng oliy fazilatlaridan biri bo'lib, unda kuch, iroda va qat'iyat mujassam bo'ladi. Go'ro'g'li dostonida bosh qahramon bo'lgan Go'ro'g'li va uning safdoshlari o'z jasorati bilan xalq qalbida o'chmas iz qoldirgan. Ularning kuchi, mardligi va qat'iyati nafaqat jang maydonida, balki xalqni himoya qilish yo'lidagi barcha sinovlarda namoyon bo'ladi. Ular og'ir sharoitlarda ham qo'rquvga berilmasdan, o'z maqsadlariga yetish uchun mustahkam iroda bilan harakat qiladi. Bu jasorat harbiy xizmatning asosiy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Go'ro'g'li va uning safdoshlari ko'rsatgan mardlik va chidamlilik bugungi kun harbiy xizmatchilari uchun katta ruhiy turtki bo'lib xizmat qilishi mumkin. Harbiy xizmatning mohiyati nafaqat jismoniy tayyorgarlikda, balki jasorat, matonat va chidamlilik kabi sifatlarini shakllantirishda ham namoyon bo'ladi.

Go'ro'g'li obrazida halollik va adolatparvarlik tamoyillari yuksak darajada ko'rsatiladi. U nafaqat jangda, balki kundalik hayotda ham o'z so'ziga sodiq, adolatli rahbar sifatida gavdalanadi. Bu xususiyatlar harbiy xizmatchilar

uchun ham muhimdir, chunki ularning faoliyati halollik va mas'uliyat bilan bog'liqdir.

HALOLLIK VA ADOLATPARVARLIK insoniy fazilatlarining eng yuksak ko'rinishlari bo'lib, ular jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti uchun asosiy poydevor hisoblanadi. Go'ro'g'li obrazi dostonlarda aynan ushbu tamoyillarning namunasi sifatida tasvirlangan. U nafaqat jang maydonida mard va shijoatli qahramon sifatida, balki kundalik hayotda ham halol, adolatparvar rahbar sifatida gavdalanadi. Uning har bir qarorida insonparvarlik, adolat va vijdoniy mas'uliyat mujassam bo'lib, bu fazilatlar uni xalq orasida hurmatli yetakchi sifatida tanitadi.

Go'ro'g'lining halolligi uning so'ziga sodiq va vijdonan ish tutadigan inson ekanini namoyon etadi. U hech qachon yolg'on yoki hiylanayrang yo'lga bormaydi, o'z maqsadlariga erishishda har doim haqiqatni ustun qo'yadi. Adolatparvarlik esa uning rahbarlik fazilatlarini yanada yuksaltiradi. U qarorlar chiqarishda har doim xalq manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadi va hech kimni haqqidan mahrum qilmaydi. Uning bu fazilatlarini jang maydonidagi harakatlarida ham ko'zga yaqqol tashlanadi – u jangovar harakatlarni olib borishda dushman ustidan g'alaba qozonishda ham insoniylikni unutmaydi.

Bu xususiyatlar harbiy xizmatchilar uchun ham o'ta muhimdir. Chunki ularning faoliyati halollik, mas'uliyat va adolat bilan chambarchas bog'liq. Harbiy xizmatning mohiyati nafaqat harbiy vazifalarni bajarish, balki o'z xalqiga va yurtiga nisbatan vijdonli va mas'uliyatli bo'lishni talab qiladi. Harbiy xizmatchi har bir harakatida halollikni namoyon etishi va adolatparvarlikni tamoyil sifatida ushlashi kerak. Chunki bu fazilatlar nafaqat jang maydonida, balki tinchlik davridagi kundalik xizmatda ham katta ahamiyatga ega.

Otabek ALLAYAROV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
dotsenti

STRESSBARDOSH

HARBIY JURNALISTLARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Qo'shinlarda harbiy xizmatchilarning nafaqat jismoniy tayyorgarligini yuksaltirish, balki ruhiy barqarorligini ta'minlash, stresslarga chidamliligini oshirish va shu maqsadda ularning psixologik bilimlarni egallashlariga chuqur e'tibor qaratiladi. Ularga turli stressli vaziyatlarga tushganlarida qo'llanadigan chora-tadbirlarni o'rgatish, kerak bo'lsa, stressli vaziyatlarni sun'iy tarzda yaratish va bu orqali ruhan barqaror, o'ziga ishonchi yuqori, har qanday vaziyatda o'zini yo'qotmaydigan, psixologik bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislarni shakllantirish ko'zlangan.

Faoliyati bevosita harbiylarning sharaflari va mas'uliyatli, ayni paytda mashaqqatli xizmati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan harbiy jurnalistlar ham kasbiy faoliyat jarayonida stressli vaziyatlarga duch kelishi shubhasizdir. Shu bois ularning ruhan barqaror, keskin va ziddiyatli vaziyatlarda o'zini idora qila oladigan, tushkunliklarga tushib qolmay, stresslarga berilmasdan, qiyinchiliklarni mardona yengib o'tishga qodir bo'lib shakllanishi muhimdir.

Psixologiyada kishining o'ziga bo'lgan ishonch tuyg'usi yuqoriligi mustahkam ruhiy barqarorlik belgisi sifatida qaraladi. Kelgusida hayotini harbiy jurnalistika bilan bog'lashni ko'zlagan talabalarning psixologik savodxon bo'lishi bunday sifatlar shakllanishiga dalolat.

“Shaxs o'z hayotida ko'plab marotaba stress va frustratsiya kabi salbiy psixologik holatlarga duch kelishi tabiiy holat, lekin aksariyat kishilar bunday holatlardan chiqib keta olish yuzasidan psixologik bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lmagani tufayli o'z ruhiyatini salbiy ta'sirlardan asray olmaydi,” deydi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi N. Ismoilova.

Kundalik faoliyatda uchraydigan oddiy holatlarga zid bo'lgan o'ta keskin voqea-hodisalar, noodatiy manzaralar stresslarni paydo qiladigan omillardir. Jurnalistlar kasbi taqozosiga ko'ra, xuddi shunday kundalik oddiy holatlardan farqli turli keskin vaziyatlarga tushishi, qiyinchiliklarga, mashaqqatlarga duch kelishi mumkin. Ayniqsa, harbiy jurnalistlar uchun bu kabi sinovlar ikki karra ortadi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

“Muxbirlarlik – yozuvchi uchun eng yaxshi maktab. Gazeta, jurnal, televideniye yoki radioda ishlasangiz, kasb-u kor taqozosi bilan qayerlarga bosh suqmaysiz, kimlar bilan muloqotda bo'lmaysiz?! Viloyat gazetasida ishlab yurgan paytlarimda jasadlar qatorlashtirib qo'yilgan morgga ham, jinnixonaga, qamoqxonaga ham kirib chiqishimga to'g'ri kelgan,” deya ta'kidlaydi faxriy jurnalist, yozuvchi Nusrat Rahmat. Bu yerda muallif yozuvchi sifatida shakllanishida muxbir bo'lib ishlab yurgan paytlarida orttirgan tajribasi qo'l kelganini alohida ta'kidlamogda. Ammo biz o'rganayotgan muammo ham e'tibordan chetda emas. Ya'ni jurnalistning kasbiy faoliyati davomida

duch kelishi mumkin bo'lgan o'ziga xos sinovlar ta'kidlanmogdiki, bu harbiy va fuqaro jurnalistlarga ham birday taalluqli. Lekin harbiy jurnalistlarda mas'uliyat ikki karra ortadi, deyishimizga sabab ular, avvalo, harbiy, keyin jurnalist! Bu ikki so'zning birikishidan paydo bo'lgan kasb sohiblari fuqaro hamkasblari duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar bilan bir qatorda, ularga uchramaydiganlariga ham to'qnash kelaveradi.

Masalan, harbiy jurnalistlar Vatan himoyachilari bilan birgalikda dala-o'quv mashg'ulotlari maydonlarida, undan tashqari, dasht-cho'l va tog'li hududlarda tashkil etiladigan jangovar o'quv mashqlarida ishtirok etishi, bu jarayonda ba'zan texnikalarsiz uzoq masofalarga piyoda, gohida ob-havoning injiqliklariga bardosh berib, issiq-sovuq, yog'in-sochin va dovul-bo'ronlarda ham harakatlanishi, harakatlanish davomida ham kasbiy professional faoliyati taqozosiga ko'ra, tasvirga tushirish, intervyular olish, ma'lumotlar to'plash kabi ishlarni ham amalga oshirishi kerak bo'ladi. Bundan tashqari, ular ziddiyatli vaziyatlarga, jumladan to'qnashuvlarga yoki uning oqibatlariga ham duch kelishi, ayanchli ahvolga tushgan yaradorlar, qochqinlarning mashaqqatli kechmishlari kabi inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadigan holatlarga guvoh bo'lishi mumkin. Shunday vaziyatlarda harbiy jurnalistga nafaqat jismonan baquvvat va ma'nan yetuklik, balki stresslarga bardoshli, ruhiy psixologik bosimlarga ham chidamlilik sifatlariga egaligi asqatadi.

Ma'lumki, jangovar vaziyatlarda turli qurol-aslahalarning qo'llanilishidan paydo bo'lgan shovqin-suron, o'q va portlash ovozlari, yaradorlarning, ayollar va bolalarning oh-nolasi, dod-faryodi har qanday odamning asabiga ta'sir qilmay qolmaydi. Harbiy jurnalist xizmat taqozosiga ko'ra, shunday vaziyatga duch kelganida daf'atan o'zini yo'qotib qo'ymasligi, stressga tushmasligida uning bu kabi holatlarga avvaldan tayyor bo'lib borishi, sun'iy ravishda tashkil qilingan ana shunday jang sahnalari-yu, shovqin elementlariga ko'nikkani qo'l keladi.

QUROLI KUCHLARIMIZ harbiy xizmatchilarida bu kabi ko'nikmalarni shakllantirishda ruhiy ta'sir yo'lakchalarining ham roli katta. Aytish o'rinliki, ruhiy ta'sir yo'lakchalari MDH davlatlarida birinchilardan bo'lib aynan O'zbekistonda joriy qilingan tajribadir.



Dastlab Mudofaa vazirligining Markaziy harbiy okrug tasarrufidagi “Forish” tog'-o'quv poligonida barpo etilgan ruhiy ta'sir yo'lakchasi keyinchalik boshqa harbiy okruglarda ham bunyod etildi.

Ushbu yo'lakdan o'tish – harbiy xizmatchining qorong'i yerosti tunnelidan sun'iy tarqatilayotgan turli o'qotar va portlovchi qurollarning shovqin-suroni hamda azob chekayotgan insonlarning dod-faryodlarini eshitish barobarida, goh o'ydin-chuqur, goh turli to'siqlar osha harakatlanishi va yo'l topib tunnelning ikkinchi tomonidan chiqishigacha kechadi. Ruhiy ta'sir yo'lakiga kirish va undan chiqqandan keyin harbiy xizmatchining yurak urishi va ruhiy holati ko'rikdan o'tkaziladi. Ana shunday mashqlar natijasida amaliy ko'nikma hosil qilgan mutaxassislarda real vaziyatlarda ishonchli harakatlanadi. Bu kabi tajriba harbiy jurnalistlar bilan ham o'tkazilishi ularga ruhiy bosimlarga bardoshli bo'lishda asqatadi.

Rezervdagi polkovnik, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent Alijon Safarov ziddiyatli hududlarda vazifa bajarishga yo'l olayotgan jurnalistlarga faoliyati davomida e'tibor qarataishi kerak bo'lgan shunday tavsiyalarni beradi: “Jurnalist ziddiyatli hududga, urush kechayotgan qaynoq nuqtalarga borishni istasa, safarga nafaqat ruhan, balki kasbiy, huquqiy, moddiy-texnik jihatdan ham tayyorgarlik ko'rishi zarur. Bu ikkinchi muhim qoida. Demak, bularni umumlashtirgan holda safarga otlangan jurnalist uchun quyidagilarga amal qilishi tavsiya etiladi:

xalqaro gumanitar huquqning asosiy qoidalarni o'rganishi;
qaynoq nuqtalarda qarindoshlari, yaqinlari, do'stlari va tanishlari bor-yo'qligini aniqlashi, agar bor bo'lsa, ular bilan oldindan bog'lanib, borishi haqida ogohlantirishi. Chunki jurnalist murakkab holatga tushsa, bu vaziyatdan chiqishiga ular yordam beradi;
hudud joylashuvi, xalqining urf-odatlarini, tarixiy an'analarni o'rganishi;

nizoga (harbiy yoki boshqa) nima sabab bo'lganini bilishi kerak. Ularni bilmaslik jurnalistga zarar yetkazishi mumkin;
hududning jug'rofiy joylashuvi, iqlimi, shahar, posyolka, qishloqlar, daryo, ko'llar va boshqalarni bilishi;

jurnalistni josus deb hisoblamasliklari uchun xaritani olib yurmasligi, telefonida ham saqlamasligi kerak;

imkon qadar hududda yashaydigan aholining tilini o'rganishi kerak;
hudud qonunlari, akkreditatsiya talablariga rioya qilishi lozim;

sog'lig'ini sug'urta qilishi kerak. G'arbda tahririyat o'z jurnalistlarini bunday safarga yo'llaganda, albatta sug'urta qiladi;

turli yuqumli xastaliklardan emlanish;
qon guruhini aniqlab, shaxsini tasdiqlovchi hujjatga kiritish;

muharriri bilan xizmat safari yo'nalishlarini, signal so'zlar va jummalarni ishlab chiqishi, safar maqsadini aniq qo'yishi, tahririyat bilan aloqa bog'lash uchun nazorat nuqtalarini belgilab olishi kerak. Maqsad aniq bo'lmasa, uni josuslikda ayblashlari mumkin;

shaxsiy gigiyena vositalarini olishi;
dori vositalari joylangan tibbiy qutichaga ega bo'lishi;

faoliyat uchun zarur hujjatlarni olishi;
pul mablag'i (dollar, yevro), borayotgan mamlakati valyutasidan olishi;

tamaki mahsulotlarini olishi;
oziq-ovqat va suv (quritilgan non, konserva). Suvni harbiylar flyajkasida olib yurish maqsadga muvofiq emas. Negaki uning harbiy xizmatchi emasligini (jurnalist ekanini) buyumlari ham tasdiqlab turishi kerak;

spirt va shirinliklar;
issiq kiyim;
yoritish uchun kichik fonar;
hududiy tilga o'girilgan beyjik;
bronejilet;
radiopriyomnik;
ryukzak”.

HARBIY JURNALISTLAR ekstremal vaziyatlarga tushganida, bordi-yu, jangovar vaziyatlarda hamrohlaridan ayrilib, yolg'iz qolib ketganida notanish hududlarda to'g'ri yo'nalishda harakatlanishni aniqlab olishi uchun harbiy topografiya fanidan olgan bilimlari qo'l keladi. Harbiy topografiyada bu orientirlash deyiladi. Orientirlashning turli usullari bor. Biz eng qulay va nisbatan osonroqlarini ko'rib chiqamiz.

“Orientirlashning oddiy usullari kompas yordamida, osmon yoritkichlari va mahalliy predmetlar alomati bo'yicha gorizont tomonlarini va yo'nalish harakatini aniqlashda qo'llaniladi”. Bordi-yu, shunday kezlarda yegulik va suv zaxirasi tugab qolsa, ularni to'plashni bilish ham harbiy jurnalistning kasbiy faoliyatidagi o'ziga xosliklardan (ov qilish, tabiiy o't-o'lanlarning iste'molga yaroqlilarini farqlay bilish, ularning qaysilarining ildizini, qaysilarining yuza qismini yeyish mumkinligini bilish kabilar). Ya'ni bular harbiy xizmatchilarning yashovchanliklarini oshirishga qaratilgan mashqlardan bir misoldir. Biroq bular nafaqat harbiy, balki fuqaro jurnalistlarga ham kerak bo'ladi, albatta. Chunki hayotda har xil vaziyat bo'lishi mumkin. Ularga avvaldan tayyorgarlik ko'rib borish esa muvaffaqiyat kaliti sanaladi.

XULOSA QILIB AYTGANDA, ziddiyatli, keskin va stresslarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan vaziyatga tushib qolishdan hech kim kafolatlanmagan ekan, demak, unga oldindan tayyorgarlik ko'rib borish, shunday vaziyatga o'zini ruhan tayyorlash yetkazilishi mumkin bo'lgan zararning oldini oladi, hech bo'lmaganda kamaytiradi.

Yoshin HAKIMOV,
O'zJOKU Harbiy va sport jurnalistikasi kafedrasida o'qituvchisi

YURAKNING TO'RT SANCHIG'I

SHAYMAN CHAVANDOZNING NIGOHI

Kuzning oxirlari edi. Telefon jiringladi: notanish raqam. Behafsala go'shakni ko'tarsam, tanish ovoz eshitildi:

– Qandaysan, nevara, kayf chog'mi?

Ko'ksimga qishloq hidi urilganday bo'ldi:

Shayman chavandoz. G'ayratli bova, fermer. Yilda ikki-uch marta nimalarnidir hal etgani azza-bazza poytaxtga kelib turadi. So'rashdik. Chilonzordan qo'ng'iroq qilayotgan ekanlar. Bordim. Chavandoz bova dashtday keng bag'rini ochdi:

– Ha, ko'zingdan...

Uyga taklif qiluvdim, rapidaday qo'lini sermadi:

– Yer qarab turibdi, choylashishga balo bormi?

Poyezd jo'nashiga hali barvaqt. Bir xabarlashay, deb edim-da... Yo'l ustidagi kafega kirdik. Chavandoz bova do'ppisini qo'lga urib, qayta-qayta qoqdi:

– Tavbangdan-a, uch oy oldin manov bino yo'q edi-ku!..

– Ha, endi...

Ovqat orasi ag'dan-bag'dan gurgung qo'shildi. Chavandoz zotining ichi to'la gap bo'ladi...

– Ay, nevara, erkak degani ot minmay qo'ydi.

Shuning uchun badanda bujur yo'q-da. Sen tengi paytimiz Inoyat "kuzir" bilan ko'pkaridan qolmasdik. Qor beldan urib tursa ham, bu yog'i Boysun-u Sherobod, naryog'i Sariosiyoga borib ot chopganmiz. Yaqin orada avvalgiday ko'pkarini ham, chavandoz ham ko'rolmadim, nevara...

Chavandoz bova tiynatiga nomuvofiq andak ma'yuslanadi, xo'rsinadi. Bir dam o'tgach, ko'zlarda yana o'sha shiddat jilva qiladi:

– Ay, baxshilarni aytgin. El sel bo'lardi-ya. Qodir baxshi to'yga kelsa, o'tirgani joy topilmasdi. Polvonlar doston eshitib, davralardi. So'ng kurash ko'rgin-da. Kuch bilakka sig'may, jelakni "tors-tors" yirtadi-ya... Qodir baxshi ham chertib aytardi, ammo-lekin "Ot mingan yigitlarga oriyat yo'ldosh bo'ldi..." derdi. Ay, belida belbog'i borlar bu gapdan qizinmasinmi?!

Chavandoz bova choy ho'pladi:

– Endi bu gaplar qolib ketdi. Bugunning bolasi boshqacha! Bularing otni "zoopark"da ko'rib katta bo'lyapti. Shuning uchunmikan, ko'zida o't ko'rmayman. Ay, tavbaa...

Sal narida bir talay o'smirlar yoshi o'tganroq ikki ayol boshchiligida nimanidir bayram qilishardi. Qiy-chuv, hiring-hiring...

Bittasi turib, magnitofonga kasseta qo'yib keldi.

"...qachon, dema, dilni qilma vayron,

qachon, dema, senga jonim qurbon,

kechirgin xatoyim,

kechirib qo'yg'in tamom – Mario!.."

Jazavali raqs boshlandi. O'smirlar kim o'zarga qiyqirib, haligi ayollarni o'rta olishib, bilganicha o'ynashardi. Bittasi esa azbaroyi zavq-shavqdan bo'lsa kerak, qiz bolani dast ko'tarib, bir-ikki aylantirib qo'ydi.

Shayman chavandoz hayron bo'lib tikildi. Keyin shaxt bilan turdi-yu, magnitofonning sim-pimini uzib, otib yubordi. Qiy-chuv birzumda tinchidi.

Chavandoz bova hayron bo'lib turganlarga bir qoshini balandlatdi:

– Haa?!

Uning xarakterini bilganim uchun aralashmadim. Ammo jim qarab ham turolmadim. Oliftaroq bittasini tutolmay qoldim. Qaboq uyib turgan Chavandoz bovaga ro'para bo'ldi:

– Nima qilyapsiz, boboy?..

Ulgurolmadim. Haligi bola tarsakidan ancha nariga uchib tushdi. Boshlandi to'polon. Yuz-ko'zlari bo'yalgan, sochi kalta boyagi xotinar shang'illagancha "tartibbuzar zo'ravon"ga yopishib ketdi:

– Kimsiz, o'zi. "Vaabshe" tushunolmay qolduv.

Voy, tavba qilsam, jinniroqmisiz, a?

Chavandoz bova qo'lini sermadi:

– Tek tur-ey!

Kafening kattalari yugurib keldi. Shayman chavandozni qo'ltiqdashib, qulog'iga bir nimani shivirlashib, tashqariga olib chiqishdi.

– Bo'ldi-ey!

Chavandoz bova bir siltanib, u yog'-bu yog'ini to'g'rilagan bo'ldi.

– Bizdan qancha?

Cho'ntak kovlayotib qaragam, u o'qrayib turibdi. Tinchidim. Ketayotib, uzr so'ragani chiqqan qandaydir bolaga chavandoz bova o'dag'ayladi:

– Kim, anov urg'ochi?

Yigitcha yerga qaradi:

– Ustozimiz...

Indamay, yo'lga tushdik. Shayman chavandoz poyezdga chiqarkan, jim bag'riga bosdi. So'ng... keetdi. Shu bo'yi mana ikki yildirki, u poytaxtga kelmaydi.

"QORNIM TO'YSA, BO'LDI-DA"

So'nggi marta qishloqqa borganimda, adirga chiqdim. Bir bola mol boqib o'tirgan ekan.

Gaplashgim keldi, negadir. So'rashdim-u, arang tanidim: uyi anhorning narigi betida. Juvozkash amakinig supraqqdisi. Bu yil 9-sinfni bitiribdi.

– Kitob o'qiysanmi? – dedim gapni aylantirib. Boshini chayqadi. Sababini so'rasam, yelkasini qisdi. Menam qo'ymadim.

– Kim bo'lmoqchisan?

– Hech kim... – pichirladi u.

– Iya, uka, sal pastroq tushing, – dedim erkalab.

– Agar sen hech kim bo'lolsang, dunyo nima bo'lishini bilasanmi? Ajablanib tikildi.

– Shaharda o'qiysanmi, nasib bo'lsa?

– Yo'q...

– Nimaga, endi?

– Otamning puli yo'q, – cho'rt kesib gapirdi u.

– Iya, qiziq ekansan-ku! Sarflagan puling bir kuni qaytib keladi.

– ...

Boshini siladim:

– Xo'sh, otang bilan gaplashsam, o'qiysanmi?

U o'ylanib qoldi. Keyin... ishonasizmi, naq saksondan sakragan cholday gapirdi:

– Bizar kattarguncha... zamonlar o'zgarib ketadi.

– Nimasi o'zgaradi, – dedim iddao aralash.

– ...

Birpas jim qoldik

– Cho'pon bo'lasanmi? – dedim andak o'tib.

Boshini sermadi.

– Keyin-chi?

– Mol boqaman.

– Bor-yo'g'i shumi? – dedim ajablanib.

U yerga qaradi.

– Qornim to'ysa, bo'ldi-da.

Iloji boricha, xotirjam gapirishga urindim

– Hov, anov targ'il g'unajinni ko'ryapsanmi?

Ana shuning ham qorni to'ysa bo'ldi. Sening undan farqing yo'qmi? Ukam tushmagur qochib ketdi.

Kechqurun hamsoyamiznikida to'y bo'ldi.

Otarchilar shaharlik ekan. Ko'pchilikning ko'zi husni qocha boshlagan raqqosada. U ham o'z

ishining ustasi: pul chiqarmaguningizcha

ketmaydi. Kimdir pul uzatib o'pmoqchi bo'ldi.

Raqqosa nozlandi. Haligi kishi shartta do'ppisini

kiydirdi-da, pulga belab tashladi. Raqqosa bu safar

yo'q demadi, hartugul. Maqsadiga yetgan boyagi

kishi atrofga burgutona qarash qilib, davradan

chiqdi. Yonimga kelib o'tirganida uni tuyqus tanib

qoldim. Bu o'sha juvozkash edi.

JO'NLASHAYOTGAN HAYRAT

"Oxir zamon odamlari yantoq ustiga chiqib azon aytarkan", derdi momom. Ba'zan o'ylab

qolaman. Avlodlar almashgani sayin umr ko'rish

yoshining qisqarayotgani, gavda tuzilishining

kichrayib borayotgani – bor gap. Ammo e'tiborlisi

shundaki, odamzodda xudbinlik ortgani sayin

hayrat jo'nashib, doirasi torayib borayotir.

Sun'iy jarayonlar qarshisidagi lollik esa hayrat

bo'lolmaydi. Navoiy hazratlari "Lison ut-tayr"dagi

bir vodiy (*kamolot bosqichi*)ni Hayrat deb nomlagan-

da. Bilingki, hayrat yo'qolgani sayin inson

o'zligidan, "men"idan uzoqlashib boraveradi.

Yaqinda Toshkentga kelishimda bir yigit

safardosh bo'ldi. Gapimiz darrov o'ng tushdi. Rosa

xursand ko'rinardi.

– To'ydan kelyapman, aka. Tog'am o'g'lining

qo'lini halolladi. Dahshat. Hamma qoyil qoldi.

Sakkizta otarchi. Voy, to'ydan bir kun oldin-chi,

to'rt og'ayni mashinani minib chiqqanmiz. Rosa

o'tirib, yarim kechasi osh qilmoqchi bo'ldik-da.

Urin-urin boshlandi. Bir payt ko'zimni ochsam,

sabzi kuyib, qozonga yopishib qolibdi. Hamma

"o'chib qolgan" ekan. Voy, ana komediya...

U yana ko'p gapirdi: asli samolyotda kelmoqchi

ekan-u, Termizgacha borishga erinibdi. Hali "prava"

ololmagani uchun mashinani olib kelolmadim.

Qizlardan tanishi ko'p, o'zi ham sanog'idan

adashib ketadi. Bir qancha rasmlarni ko'rsatdi: turli

hangomalardan yodgorliklar.

Avtobus jo'nashi oldidan u bir yigit bilan

gaplashib turgandi. Negadir u yigit chiqmadi.

Shuni so'radim.

– Ha, umi sinfdoshim, qo'shnimizning o'g'li, –

beparvo qo'l siltadi. – Toshkentga ishga borayotgan

ekan, avtobusga puli yetmabdi. Mana, mana shu-da,

haligi aytganim. Tog'da "Matiz"ni haydab avariya

qilishimga ozgina qolgan...

SO'ZG'AKI POYON BO'LUR...

Bir kuni darsdan kelsam, shumxabar aytishdi:

yaqin bir akamiz olamdan o'tibdi. Bandalik. Uyidan

chiqarishayotgan ekan. Ulgurolmagimni bilgach,

to'g'ri qabristonga borib qo'ya qoldim. Masjidda

ikkita tobut turardi. Ko'p yaxshi gaplar bo'ldi.

So'ng bitta tobut chiqdi. Qo'lma-qo'l bo'ldi. Imkon

qadar ko'tarishdim. Marhumni qabrga qo'yayotib,

atrofimga qaragam, bitta ham tanish kishi yo'q.

Adashganimni sezdim-u, duoni o'qir-o'qimas,

ikkinchi tobutni olib ketishgan tomonga chopdim.

Qorovuldan so'rab topgunimcha vaqt o'tdi. So'nggi

duoga adashganimdan afsuslandim. Keyin...

o'zimdand jirkanib ketdim.



HARBIY MUSIQA AKADEMIK LITSEYNING 80 YILLIGI



O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qoshidagi Harbiy musiqiy akademik litsey o'zining 80 yillik yubileyini 2024-yili davomida bir qator yorqin tadbirlar bilan nishonladi. Ularning orasida XXV "San'at g'unchalari" respublika yubiley tanlovi hamda V respublika konferensiyasi alohida ahamiyatga ega bo'ldi.



Litseyda "Manaviyat festivali" keng nishonlandi. Festival doirasida turli madaniy tadbirlar, ijodiy uchrashuv va musiqiy chiqishlar uyushtirildi. Bundan tashqari, yil davomida turli umumta'lim fanlari bo'yicha olimpiadalar o'tkazildi. Ular nafaqat litsey, tuman va shahar bosqichlarini qamrab oldi, balki xalqaro miqyosga chiqdi, o'quvchilarga o'z bilim va iqtidorini nufuzli platformalarda namoyon etish imkonini berdi. Bu tadbirlar yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Yilning eng muhim sarhisobi esa 2024-yil 12-dekabrda o'tkazilgan I xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'ldi. Bu tadbirlar o'quvchilar, o'qituvchilar, mehmonlar, ekspert va mutaxassislarni birlashtirib, yubiley yilini musiqa, ijod va madaniy hamkorlik bayramiga aylantirdi.

Musiqa, ijod va ilmiy hamkorlik

Harbiy musiqiy akademik litsey yubiley tadbirlari orqali o'zining iqtidorli o'quvchilari, mahoratli o'qituvchilari va musiqaga sadoqatini namoyon etdi. Milliy va xalqaro sahnalardagi konsertlar, tanlovlar litseyning yuqori kasbiy maqomini yana bir bor tasdiqladi.

Yubileyning yorqin voqealaridan biri, mashhur musiqachi va pedagog Viktor Serafimovich Kurnitskiy xotirasiga bag'ishlangan konsert bo'ldi. Konsert dasturida uning ijodi bilan bog'liq asarlari, jumladan "Xorazm uvertyurasi" hamda jaz va klassik musiqa namunalari jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.

Litsey o'quvchilari Sankt-Peterburgda o'tkazilgan "Drum wave" xalqaro musiqa

tanlovida 3-o'rinni egallab, xalqaro miqyosda zafar qozondi. Shuningdek, xalqaro "Astana Stars" tanlovida litsey pedagoglari va o'quvchilari muvaffaqiyatli qatnashib, o'z mahoratlarini namoyon qildi. Bunday tadbirlar nafaqat litsey, balki mamlakatning xalqaro miqyosdagi obro'sini oshirishga xizmat qiladi. "Big bend" jamoasining "Kuzgi jaz" konsertidagi chiqishlari, fortepiano bo'limi hisobot konserti va litsey o'quvchilarining bolalar musiqa maktabidagi xayriya konserti yana bir yorqin sahifa bo'ldi.

Yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash

Litseyning barcha musiqa bo'limlari o'quvchilari ishtirok etgan "Gamma va etyudlar" ko'rik-tanlovi yubileyning yorqin voqealaridan biri bo'ldi. Taqdirlash marosimi g'oliblar va yuqori mahorat hamda ilg'orlikka intilishlarini namoyish etgan ishtirokchilar uchun bayram bo'ldi. Musiqa nazariyasi bo'limi ham yubiley tantanalarida tanlov va viktorinalar tashkil etib, o'z hissasini qo'shdi. Bu tadbirlar eng iqtidorli talabalarni birlashtirib, ularga musiqa nazariyasi va adabiyotiga oid bilimlarini namoyish etish imkonini berdi. G'oliblar diplom va sovg'alar bilan taqdirlandi.

I xalqaro konferensiya

Yubiley tadbirlarining eng muhim qismi I xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya "Musiqa ta'limi va harbiy-vatanparvarlik an'analari istiqbollari" bo'ldi. Unda 200 dan ortiq ishtirokchi, jumladan O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Rossiya, Belarus, Turkiya, Janubiy Koreya, Xitoy va AQSh

vakillari ishtirok etishdi. Konferensiyaning plenar yig'ilishida O'zbekiston, Rossiya, Turkiya va Tojikiston vakillari so'zga chiqdi. Belaruslik ishtirokchilarning videomurojaatlari alohida qiziqish uyg'otdi.

Konferensiyaning tantanali ochilishi Milliy gvardiya qo'mondoni general-mayor Rustam Jo'rayevning tabrik so'zini o'qish bilan boshlandi. Milliy gvardiya qo'mondoni o'rinbosari polkovnik Sarvar Mamayasupovning so'zlarida yoshlarni tarbiyalash, an'analarni asrab-avaylash muhimligi ta'kidlandi. Taniqli olim, falsafa fanlari doktori Jamila Shermuhamedova yoshlarga motivatsiya berish va vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib etish maqsadida qiziqarli ma'ruza o'tkazdi hamda litsey kutubxonasiga o'zining yangi chop etilgan kitoblarini sovg'a qildi.

Yalpi majlisning moderatori professor Anvar Lutfullayevning mahorati, professionalizmi, notiqligi va tajribali yondashuvi tadbirning yuqori saviyada o'tishiga hissa qo'shdi. Yalpi majlis spikerlari orasida Turkiyadan Musa Yavuz Alptekin, Rossiyadan Novosibirsk davlat pedagogika universitetidan dotsent Nina Chikunova va pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, Novosibirsk Madaniyat va yoshlar siyosati instituti direktori Olga Kapustina, O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori Inessa Gulzarova va Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori Anvar Norbekov o'z ma'ruzasi bilan ishtirok etdi. Tojikistondan kelgan mehmonlar Saydulla G'aybulloyev va Baxtiyor Saidkarimov litseyga multimedia diskli kitoblardan

iborat noyob nashrni sovg'a qildi. Ular o'z ma'ruzalari bilan tadbir ishtirokchilarini ilhomlantirdi va konferensiyaning ilmiy-pedagogik ahamiyatini yanada oshirdi.

Konferensiya mavzulari keng qamrovli bo'lib, musiqa ta'limi, vatanparvarlik tarbiyasi va zamonaviy o'quv usullarini qamrab oldi. Yuqori darajada tashkil etilganini konferensiya materiallari jamlangan ikki jildlik to'plamning tadbir kunidayoq nashr etilishi ham tasdiqlaydi. Ushbu to'plam o'zbek, rus va ingliz tillarida bo'lib, unda anjuman haqida batafsil ma'lumotlarni, shuningdek QR-kodlar orqali konferensiyada taqdim etilgan ma'ruzalar, mediamateriallar va taqdimotlarni tomosha qilish yoki eshitish imkoniyati yaratilgan. Bu innovatsion yondashuv to'plamni yanada interaktiv va foydali resursga aylantirib, uning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Muvaffaqiyatlar va ijod yili

Harbiy musiqiy akademik litseyning yubiley yili uning yuqori kasbiy darajasi va ta'limiy missiyasini yana bir bor tasdiqladi. Tadbirlarning samarali o'tkazilishi litsey direktori R. Nigmatov rahbarligidagi jamoaning professionalizmi va sa'y-harakatlari natijasidir. Litsey o'zining an'analarni saqlab, zamonaviy ta'lim metodlarini joriy etish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashda davom etmoqda.


Harbiy musiqiy akademik litsey o'zining 80 yillik tarixi davomida iqtidorlarni kashf etib, ularni yuksak musiqa san'atiga yetaklab kelgan va kelgusida ham ushbu yo'nalishda faoliyatini davom ettirishga bel bog'lagan.

Zarina XODIYEVA,
Harbiy musiqiy akademik litseyi
oliy toifali o'qituvchisi,
O'zbekiston kompozitorlar va
bastakorlar uyushmasi a'zosi

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Al-Beruniy xorazmlik qomusiy allomalardan biri sifatida tarixda qolgan. G'arb tillarida uning ismi Aliboron deb ham atalgan. Al-Beruniy nomi forscha "birun" ("chet" degan ma'noni anglatadi) so'zidan olingan bo'lib, u Afrig'iy Xorazmshohlar poytaxti Kat shahrining chekka tumanida tug'ilgan.



BERUNIY VA IBN SINO DO'STLIGI



Beruniy o'z hovlisida turli gullarni parvarishlashni yoqtirgani uchun unga "Rayhon" laqabini ham berishadi. Al-Beruniy hayotining dastlabki 25 yilini Xorazmda o'tkazdi, u yerda islom, fiqh, ilohiyot, grammatika, riyoziyot, falakiyot, tibbiyot va falsafa, fizika va boshqa ilmlar bilan ham shug'ullandi. Beruniy ona tili bo'lgan xorazmiy tilidan tashqari, fors, arab-yunon, ibroniy va suryoniy tillarini bilgan va 50 yoshida sanskrit tilini o'rgangan. Iroqiylarning oxirgi vakili Abu Nasr Mansur ibn Iroq Beruniyning ustozlari edi. Al-Beruniy falakiyot, riyoziyot, geodeziya, jug'rofiya, mineralogiya va tabiiy fanlarni yaxshi bilgan. Shuningdek, tarixchi, xronolog va tilshunos sifatida ham ajralib turardi. U o'z davrining deyarli barcha fanlarini mukammal o'rgangan sabab qomusiy alloma deb e'tirof etiladi.

Beruniyning zamondoshi bo'lgan Abu Ali ibn Sino ham o'z davrida alloma sifatida mashhurlikka eshirgan edi. U iste'dodli, xotirasi kuchli, zehni o'tkir bo'lganidan o'z davrida ma'lum bo'lgan ilmlarni tezda egallay boshladi. 10 yoshidayoq Qur'oni Karimni boshdan oyoq yoddan o'qishi, 13 yoshlaridan boshlang'ich matematika, mantiq, fiqh, falsafa ilmlari bilan shug'ullana boshlagani ham

fikrimizning yaqqol dalilidir. Ibn Sino yosh bo'lishiga qaramay, ustozlari ko'magida falsafa va tibbiyot ilmini har tomonlama o'rganadi, asta-sekin tabiblik bilan ham shug'ullanadi. U o'zidan avval o'tgan Sharq mutafakkirlarining asarlarini chuqur o'rganish bilan birga, qadimgi Yunon tabiiy-ilmii, falsafiy merosini, xususan Aristotel, Yevklid, Ptolemey, Galen, Gippokrat, Pifagor, Porfiriylarning asarlarini ham qunt bilan o'rgandi.

16-17 yoshidayoq Ibn Sino mashhur tabib - hakim bo'lib tanildi. 999-yilda Buxoro qoraxoniylar tomonidan zabt etilgach, somoniylar hokimiyati inqirozga uchradi. 1000 yilda Ibn Sino Buxorodan chiqib ketdi va madaniyat markazlaridan biri hisoblangan Xorazmga bordi, u yerda Xorazm hokimi uni saroyidagi olimlarni birlashtirgan o'z zamonasining akademiyasiga qabul qiladi. O'shanda Ibn Sino Beruniydek yetuk olim bilan yaqindan tanishadi.

Ibn Sino asarlarining umumiy soni 450 dan oshadi, lekin bizgacha faqat 160 ga yaqin asari yetib kelgan, xolos. Ko'p risolalari shahar-shahar ko'chib yurish, feodal urushlari, saroy to'polonlari, turli falokatlar tufayli yo'qolib ketgan. Ko'p manbalarda Ibn Sino, avvalo, tabib sifatida talqin etiladi, holbuki tabobat uning ilmiy sohalari

orasida eng muhimlaridan biri edi.

Tarixiy manbalarda Beruniy va Ibn Sinoning yozma munozaralari haqida ma'lumotlar berilgan. Mazkur yozma munozaralarda falsafa, astronomiya va fizika sohasining eng muhim masalalari bo'yicha qiziqarli mulohazalari mavjudligi hech bir kishini befarq qoldirmaydi. Biz quyida e'tiboringizga mazkur yozishmalardan parcha keltirishni lozim topdik:

Beruniy: "Moddalar qanday qilib o'zgaradi va bir holatdan ikkinchi holatga o'tadi: bir-biriga yaqinlashish va o'zaro bir-biriga singish orqalimi yoki o'z-o'zini o'zgartirish yo'li bilanmi? Misol uchun, suv bilan havoni olaylik. Suv havoni holatiga aylanganda aslida havoga aylanadimi yoki uning zarralari biz ko'rmaydigan darajada mayda zarrachalarga bo'linib, havoda tarqalib ketgani sababli shunday tuyuladimi?"

Ibn Sino: "Moddalarning sifat jihatidan o'zgarishi siz ko'rsatgandek suvning havoga aylanishi, uning zarralari shunchalik mayda zarralarga bo'linganidan va havoda tarqalib ketganidan bizning tuyg'ularimizdan chetda qolishi to'g'risidagi misoldagidek yuz bermaydi. Yo'q, bu holat shuning uchun yuz beradiki, suvning dastlabki materiyasi o'z shaklini yo'qotadi va havoni shaklini oladi."

Beruniy: "Agar bitta dumaloq, shaffof idish toza suv bilan to'ldirilsa, undan olov yoqish uchun billur oyna sifatida foydalanish mumkin. Agar shu idish suv o'rniga havo bilan to'ldirilsa, u yondirmaydi ham, nurni to'plamaydi ham. Nima uchun suv bunday ta'sir ko'rsatadi, yondirish va nur to'plash xususiyati faqat idishda suv bo'lgan vaqtdagina yuz beradi?"

Ibn Sino: "Suv tabiatan zich, silliq va rangsiz jism bo'lib, ana shu xususiyatlarga ega bo'lgan har qanday modda yorug'likni qaytaradi. Shuning uchun yorug'lik suv to'ldirilgan shisha idishdan qaytadi. Uning (nurlarning) kuchini bir joyga to'plagan aksidan yonish yuzaga keladi."

Beruniy: "Nima uchun muz mohiyatan sovuqlik (sifati) va tosh (shaklini) o'zida uyg'unlashtirgan substansiya bo'lgani holda suv yuzasida qalqib turadi?"

Ibn Sino: "Suv muzlaganda unda havo zarralari qotib qolib, uning suv ostiga cho'kishiga yo'l qo'ymasligi tufayli shu holat yuz beradi."

Beruniy: "Nima uchun Arastu bo'linmas zarra to'g'risidagi ta'limotni noto'g'ri deb hisoblaydi? Axir jismlarning cheksiz darajagacha bo'linishi to'g'risidagi qonuniyat undan-da zaifroq-ku?"

Ibn Sino: "Biror bir uzluksiz narsa, u yuzalik bo'ladimi, uzunlikmi, harakat yoki vaqtm, bo'linmas zarralardan tashkil topishi mumkin emas, ya'ni ularning ikki uchi va ularning o'rtasidan bo'lib turuvchi markazi bo'lmagan zarralar emas."

Beruniy: "Nima uchun barcha jismlar yerga intiladi?"

Ibn Sino: "Bu noto'g'ri. Barcha jismlar ham yerga intilmaydi. Masalan, olov va tutunning yuqoriga ko'tarilishi issiq va sovuq havo qatlamlari harakati bilan bog'liq. Agar havoning yuqori qatlamlari quyi qatlam tarkibidek tarkibga ega bo'lganida edi, olov va tutun yuqoriga ko'tarilmagan bo'lardi."

Xulosa qilib aytganda, o'rta asrlarda tabiatning ko'p sirlari kashf qilinmagan edi. Shuning uchun u davr olimlari empirik tarzda emas, mushohadaga asoslanib, oqilona yo'l bilan u yoki bu tabiat hodisasini ta'riflash orqali haqiqatga erishgan. Mazkur yozishmalarda o'rganilgan tabiatning o'ziga xosliklari ko'p asrlardan keyin jahon olimlari tomonidan o'rganildi va ularning qonunlari kashf etildi.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi Sabohat ESHBOYEVA tayyorladi.



PIYODALAR YURIBMAS,

UCHIB O'TSIN(MI?)

Inson hayoti – bebaho. Demakki, uni asrash, avaylash lozim. Ayniqsa, ko'chada harakatlanish qiyin bo'lgan bugungi sovuq kunlarda piyoda yurib ming mashaqqatga duch kelganimizda umrimizning naqadar azizligini dildan his qilamiz. Zotan, qorli, qirovli ob-havoda manzilga sog'-salomat yetib borishning o'zi katta jasorat sanaladi.

Aslini olganda shahar-u qishloqlarda keng ko'cha bo'ladimi yoki tor yo'lmi, tirband harakat ichida ham piyodalar uchun xavfsizlik ustuvor vazifa bo'lishi shart. Piyodalar o'tish yo'lagi – bu faqat yo'l chizig'igina emas. U insonlar hayotini muhofaza qiluvchi, fuqarolar xavfsizligini kafolatlovchi muhim yo'lakdir. Bu chiziqdan o'tayotgan insonlar yo'lining eng ustuvor va himoyalangan fuqarolari hisoblanadi. Lekin aslida ham shundaymi?

Ishdan uyga qaytayotib, birinchi bekatga yetguncha, uchta shunday yo'lakdan o'taman. Harakatlanish jarayonida har gal bir xil holat takrorlanaveradi: kimdir kimgadir turtulgan, yana kimdir yugurgan, yana kimdir yo'l yoqasiga yetay deganda mashina sachratgan suv yoki loydan kiyimini tozalayotgan... Aksar holatda mashinalarning yoqimsiz, jahl bilan bosiladigan signal tovushini eshitmaslik uchun ham piyodalar yugirib o'tishga harakat qilishadi. Bunday vaziyatda, ayniqsa yosh bolalarning harakati insonni xavotirga qo'yadi. Chunki piyodalarning bunday harakati tufayli yo'llarda ko'ngilsiz holatlarga sabab bo'layotgani bor haqiqat.

Shu o'rinda statistik ma'lumotlarni keltirib o'tsak. Yurtimizda umumta'lim maktabining 9 548 tasi transport qatnovi ko'p hududlarda joylashgan va aksariyat maktablar oldida piyodalar o'tishi uchun yo'laklar mavjud emas, tegishli svetoforlar o'rnatilmagan. Oqibatda joriy yilning 5 oyi davomida jami 359 nafar o'quvchi bilan bog'liq yo'l-transport hodisasi sodir etilgan va 65 nafar o'quvchi halok bo'lgan,

294 nafar o'quvchi esa turli darajada tan jarohati olgan.

Keling, piyodalar o'tish yo'lagi bilan bog'liq kamchiliklarni birgina Toshkent shahri misolida sanaymiz. Ba'zan piyodalar o'tish yo'laklari va yo'l belgilari noto'g'ri joylashgan bo'ladi. Masalan, piyodalar o'tish joylari ko'pincha svetoforlar yoki boshqa harakat belgilaridan uzoqda joylashgan. Bu esa piyodalarning xavfsiz o'tishlarini qiyinlashtiradi. Yoki yo'l belgilari va chiziqlari ko'pincha ko'rinarsiz yoki eskirgan bo'ladi. Bu ham piyodalarning harakatlanish vaqtida muammolarni yuzaga keltiradi.

Yo'l chiziqlari yaxshi ko'rinmasligi sababli aksar avtomobillar piyodalarning yo'ldan o'tishiga izn bermaydi. Natijada, piyodalar yo'lni kesib o'tishga majbur bo'ladi.

Ba'zi hududlarda esa piyodalar o'tish yo'laklari yetarli darajada yoritilmaydi. Yoritishning yomonligi qish faslida, ayniqsa tunda piyodalarning ham, haydovchilarning ham harakatlanishini qiyinlashtiradi va bu noxush holatlarga olib kelishi mumkin. Yoki transport vositalari va

piyodalar o'tish yo'laklarining o'zaro integratsiyasi ba'zan past bo'ladi. Natijada, yo'lining birinchi qismidan kesib o'tgan piyoda ikkinchi qismiga o'tishga ulgurmay, yo'l o'rtasida turib qoladi...

Ushbu mavzuni qog'ozga tushirish chog'ida biz ko'tarayotgan masala bo'yicha jahon tajribasiga qiziqdik. SHVETSIYA – dunyo bo'yicha yo'l harakati xavfsizligini oshirishdagi innovatsion yondashuvlar bilan mashhur. U yerda 1997-yildan boshlab, yo'l harakati bo'yicha maxsus dastur amaliyotga tatbiq qilingan. Ushbu dasturdan asosiy maqsad – yo'l harakati jarohatlari va o'limlarini nolga tushirish. Piyodalar o'tish yo'laklari Shvetsiyada maxsus yoritish tizimlari va svetoforlar yordamida boshqariladi. Bu tizimlar piyodalar xavfsizligini ta'minlash uchun avtomobillarni to'xtatib, piyodalarga o'tish imkoniyatini beradi.

uchun kengaytirilgan o'qitish va targ'ibot ishlari olib boriladi. Piyodalarga o'tish joylarini aniqlash va harakat qilish tartiblarini tushuntirish uchun turli reklama va axborot materiallari, shuningdek maxsus ta'lim dasturlari ishlab chiqilgan.

To'g'ri, yurtimizda piyodalarning yo'llarni xavfsiz kesib o'tishlari uchun yerosti va yerusti yo'llari qurilgan. Ammo bu tizimda ham piyodalar uchun yetarli muammolar mavjud. Ya'ni yerusti yo'llari baland va unga chiqquncha bir necha aylanma zinalardan yurib o'tish kerak. Yoshi katta, nogironligi bor insonlar uchun lift qurilganlari ham bor. Lekin u ham ishlaganida ishlaydi. Ishlamaganda esa... imkoniyati cheklanganlarning holatini tasavvur qilavering.

Yerosti o'tish yo'laklarida esa yorug'lik va tozalik yetishmaydi. Birgina Olmazor metrosidan Toshkent avtoshoxbekati tomonga o'tishdagi yerosti yo'lini olaylik. Odatda, zax, suv toshgan, chiroqlari ishlagan, yoqimsiz hidga to'la bo'ladi. Buni ko'rib, ta'bingiz xira bo'ladi. Ayting-chi, sizningcha piyodalarning manfaati o'ylanib barpo qilingan joyda ahvol shu darajada bo'ladimi?

Eng achinarlisi, bu yo'laklar, xavfsizlikni ta'minlash uchun yaratilgan bo'lsa-da, odamlarning tabiiy harakatlarini sun'iy ravishda murakkablashtiradi. Yil bo'yi quyosh nurini ko'rmaydigan yerosti o'tish yo'laklari yoki juda balandda bo'lgan yerusti yo'laklari odamlarni nafaqat jismoniy, balki ma'nan ham toliqtiradi, asabiylashtiradi. Aslida piyodalar uchun harakat erkinligi, tabiiylik va osonlik bo'lishi kerak. Ammo bu yo'laklar faqatgina shaharsozlik uchungina qurilganga o'xshaydi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, biz ko'targan masala bo'yicha muammolar talaygina. To'g'ri, piyodalar yo'llardan xavfsiz o'tishlari uchun, avvalo, haydovchilar mas'uliyatini oshirishlari lozim. Mashina boshqarayotgan ham, yo'lni kesib o'tayotgan ham birdek inson, ikkisiga ham hayot birdek qadri. Lekin shuni unutmasligimiz kerakki, "qora yo'l"dagi oq chiziqlar piyodalar uchun nafaqat bir yo'lak, balki xavfsizlikka bo'lgan ishonch chizig'i bo'lishi kerak. Demak, bu yo'lakda harakatlanayotgan piyodalarning qadamlari xavfsizlik tuyg'usi bilan quvvatlanishi lozim. Ular bu yo'ldan qo'rquv bilan emas, balki xotirjam bo'lib o'tishi lozim. Haydovchi esa bu jarayonda nafaqat qoidalarga, balki insoniy qadriyatlarga ham sodiq qolishi shart. Chunki yo'llardan faqat transport vositalari emas, balki piyodalar ham harakatlanishga haqlidir.

Ro'ziqul OCHILOV,
"Vatanparvar"



Shvetsiya shahrida piyodalar o'tish yo'laklarining dizayni kengaytirilgan va qulay bo'lib, ko'plab joylarda piyodalarning xavfsiz o'tishi uchun atrof-muhit yaxshilangan. Yirik yo'l kesishmalarida piyodalar uchun maxsus o'tish hududlari yaratilgan va transport vositalarining tezligi cheklangan.

YAPONIYA davlati esa yo'l xavfsizligini ta'minlashda yuqori darajada texnologiyalardan foydalanadi. Ko'plab shaharlarda piyodalar o'tish yo'laklari va svetoforlar tizimi "aqlli svetoforlar" bilan jihozlangan. Bu tizimlar piyodalar uchun vaqt belgilab beradi va hatto ko'zi ojiz piyodalar uchun tovushli signal chiqaradi.

SINGAPURDA piyodalar o'tish yo'laklari tartibli va qat'iy nazorat qilinadi. Xavfsizlik choralariga alohida e'tibor beriladi, har bir o'tish joyi uchun o'ziga xos tartiblar va xavfsizlik belgilari mavjud. Piyodalar va transport vositalari o'rtasidagi farqni minimallashtirish uchun piyodalarga mo'ljallangan o'tish yo'laklarining kengaytirilgan tarmog'i mavjud.

AQSHDA piyodalar o'tish yo'laklarida xavfsizlikni ta'minlash

HAR KUNI



MUTOLAA QILING!

Kitobsevar insonni tanish qiyin emas. Ayniqsa, bugungi kunlarda, kerak-nokerak axborotlar bilan xotiramizni to'ldirayotganimizda bir tiniq fikrlar, mulohazalar bilan qarshingizdan chiqadilar. Qarshingizdan chiqdi degani, hayotimizning ajralmas qismiga aylangan ijtimoiy tarmoqlardir. Ba'zi sahifalar xuddi toza buloqlarga o'xshaydi. Shohbaytlar, mukammal, muhtasham satrlar... Asl asarlardan parchalar, oydinlar hayotidan oydin voqealar, ibratli rivoyatlar. Qiziqib o'qiysan, nurga intilgan kabi qidirib qolasan.

O'qiganlaringdan, seni mutaassir etgan she'rlardan so'nggina sahifa egasini izlaysan, taniysan. Aslida uni tanitgan u haqdagi o'zi qo'ygan ma'lumotlar emas. Tanlagan she'rlari, aforizmlari, suhbatlari, kitoblar haqida tavsiyalari tanitib bo'lgan. Sen shunchaki uni yaqindan bilishni istaysan. Va shu tariqa uning "Tafakkur va ijod" olamiga kirib borasan. Ana shunday oydinlardan biri radiojurnalist, O'zbekiston Jurnalistlari uyushmasi a'zosi Robiya Xudoyberdiyeva (Robiya Kamol).

ESKI BITIK

Kitobxonning didi, farosati, fashohati turlicha bo'ladi. Muhimi, har kuni mutolaa qilish kerak. Albatta, badiiy va ilmiy adabiyot o'rtasida farq shuki, siz hayot falsafasini teranroq anglay boshlaysiz. Ya'ni samoda yulduz porlayapti, buni bilasiz, zavqlanasiz, lekin bu sayyorani yaratgan koinot haqida bilgingiz, taxayyo'l olamingiz bilan sayr qilgingiz keladi. Mushohada jarayonida tafakkuringiz kengayadi. Ilmiy kitoblarni titkilay boshlaysiz. Bunisi esa ilmga

yo'l deyiladi. Adabiyotdan ilm-fanga yo'l shundan boshlanadi.

Bir she'r yoki badiiy asarni adabiyotshunos sifatida emas, oddiy kitobxon sifatida anglash, so'zlarni his qilish, tushunish uchun ham ilm kerak. Adabiyotshunos sifatida anglatish, tahlil qilish uchun esa ko'p kitoblar o'qish va hech qachon mutolaadan to'xtamaslik lozim bo'ladi.

Muhimi, kitob o'qing, o'qing! Ko'p o'qisangiz, adabiyot sinchilarining sharhlariga ham savollaringiz paydo bo'ladi. Oddiy luqma kabi yutmaysiz, fikrlaysiz, taqqoslaysiz, tafakkur qilasiz. Shunday kitobsevarlarni bilaman, birvarakayiga ikki-uch kitobni o'qishga odatlanishgan. Badiiy, ilmiy va ommabop... Ong osti potentsiali katta hajmda ma'lumotlarni qabul qilishni boshlasa, xotira ham yaxshilanib boradi.

Vaqt taqsimoti to'g'ri yo'lga qo'yilsa, hatto ishingiz davomida ham kitob varaqlashga imkon topasiz. Mutolaaga sho'ng'ib ketganingizni sezmay qolasiz.

Men Vatan himoyachilariga qanday asarlarni tavsiya etgan bo'lar edim? Albatta, o'zim sevib o'qigan kitoblarimni-da. Yavdat Ilyasovning muhtasham ijodi bilan chuqurroq tanishing, uning barcha asarlarini tavsiya etaman. Chingiz Aytmatovning "Alvido, Gulsari"si o'qilishi kerak bo'lgan asarlardan biri, deb bilaman.

Bugun jahon adabiyotining eng noyob, durdona asarlari ham o'zbek adabiy tiliga keng ko'lamda tarjima qilinmoqda. Belarus adibasi Svetlana Alekseyevichning hujjatli qissalari shu siraga kiradi.

Yana juda ko'p asarlarni tavsiya etgim kelyapti. Biroq bu imkonsiz. Yuqorida tavsiya qilingan adiblar asarlaridan bittasini o'qisangiz ham, adabiyotga mehr-u muhabbingiz oshib, boshqa asarlarni qidirib, topib o'qiydigan kitobsevarga aylanishingizga ishonaman.

"Vatanparvar" muxbiri
Inobat IBROHIMOVA suhbatlashdi.

Ochiq eshiklar kuni



MURG'AK QALB EGALARI

Termiz garnizonida joylashgan harbiy qismda Angor tumanidagi ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar tahsil oluvchi "Nurli maskan" maktab-internati o'quvchilari uchun ochiq eshiklar kuni o'tkazildi.

Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining 33 yilligi munosabati bilan "Yangi O'zbekiston armiyasi - mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!" shiori ostida boshlangan vatanparvarlik oyligi doirasida tashkil etilgan ushbu tadbir bolalar uchun taassurotlarga va qiziqarli lahzalarga boy bo'ldi.

Tadbir doirasida tashkil etilgan davra suhbatida podpolkovnik Nizomiddin Atajanov va boshqa mas'ullar mamlakatimiz Qurolli Kuchlarida amalga oshirilayotgan

islohotlar Vatanimiz tinchligi, yurtimiz osoyishtaligi va yosh avlod baxt-u kamoloti uchun xizmat qilayotganini hayotiy misollar orqali tushuntirdi. Shuningdek, hukumatimiz tomondan harbiy xizmatchilar va ularning farzandlari uchun yaratilayotgan imkoniyat, berilayotgan imtiyozlar, e'tibor va g'amxo'rlik haqida atroflicha fikr yuritdi. O'z o'rnida harbiy qism mehmonlari ham so'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda nogironligi bo'lgan yoshlarning huquqlarini himoya qilish, ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash uchun amalga oshirilayotgan islohotlar xususida so'zladi. Samimiy va do'stona o'tgan uchrashuvda o'quvchilar tayyorlab kelgan she'rlarini yoddan o'qib berdi, kuy-qo'shiqlar kuyladi hamda qiziqarli sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

- Harbiy akalarimizning Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatiga, g'ayrat-shijoatiga va jasoratga to'la

hayotiga havasim keldi, - deydi maktab-internatning 11-sinf o'quvchisi Ziyodulla Eraliyev. - Bunday uchrashuvlarda ishtirok etish kishida yurtga sadoqat uyg'otishini hamda tinchlikning qadriga yetishga undashini his etdim. Shuning uchun ham harbiylar bilan bunday tadbirlarni ko'proq o'tkazib, hamsuhbat bo'lish tarafdoriman.

Tadbirda namoyish etilgan harbiy orkestr jamoasining Vatanni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlari, faxriy qorovul hamda qo'ljangi ustalarining ko'rgazmali chiqishlari yoshlarga bir olam quvonch bag'ishladi. O'quvchilarga harbiy qism qo'mondonligining esdalik sovg'alari topshirildi. Harbiylar va o'quvchi-yoshlar birgalikda esdalik uchun suratga tushishdi.

III darajali serjant Akbar AHMEDOV
Termiz garnizoni

QADIR

Tursun yong'oq daraxtidan yiqilib, oyoqlari va o'ng qo'li sinib, ancha payt yotib qoldi. Suyaklari qiyshiq bitib, qayta jarrohlik tufayli ko'proq vaqti kasalxonada o'tdi. Tuzalishi ham qiyin kechayotgan edi. Uyga qaytganida ayon bo'ldiki, unga qarovchi kerak ekan. Kasalxonada unchalik bilinmagan edi. Uyda hamma o'z ishi bilan ovora, xonasida bot-bot o'zi yolg'iz qolib ketadigan bo'ldi. Onasining bordi-keldilari ko'p, ukasi oilasi bilan alohida uy qilib chiqqan. Singlisidan bir xayr kelishi gumon. Esini tanibdiki, otasi kekxa va kasalvandligini pisanda qilib yashaydi. Yaqindan boshlab yonida aroq do'koni bor guzardagi somsaxonadan beri kelmay qoldi.

Kap-katta erkakni eplash ham qiyin ekan. Onasiga ham malol kela boshladi.

– Xotiningni olib kelamiz, – dedi onasi harsillab tagligini almashtirar ekan, – ortiq kuchim qolmayapti. Kelib, senga qarasin. Onasini kida shuncha yurgani yetar.

Tursun "jon" deb rozi bo'ldi. Unga qolsa, hoziroq borib, oyog'ini yerga tekkizmay, dikonglatib oldiga solib kelgan bo'lar edi-yu, yurolmaydi-da. Undan keyin og'riqlar ham juda jonidan to'ydirvordi. Xotini necha bor o'lasini qilib do'pposlasa ham, ota-onasi yana qaytarib uyiga jo'natib yuborardi. Negadir bu safar jimjit. Dom-darak yo'q. Kasalxonada ham birrov yo'qlamadi. Hali qarab tursin, bir xumordan chiqib do'pposlasin. Biroz o'ziga kelib olsin, ko'rsatib qo'yadi, ketib qolish qanaqa bo'lishini. O'sha kuni tepkilab cho'ziltirib tashlagan edi, qanday qilib o'ziga keldi? Qiziniyam olib ketishga kuchi yetganini qarang. Demak, o'zini sulayib qolgandek ko'rsatib, meni aldagan. Unga kimdir yordam berdimikan? Yo'g'ey, bu uyga kirishga kimning haddi sig'ar edi? Endi qaytmasmikan? Qaytadi, qayerga ham borar edi? Sho'rtumshuq otasi o'gay onasining izmidan chiqolmaydi. Katalakdek hovlida o'zlari zo'rg'a kun ko'rib yashasa-yu, bolasi bilan qaytib borgan qizini boshiga yostiqlarmidi? Chiqqan qiz chiydan tashqari. Ammo... Nega shu paytgacha qaytib kelmayapti? Onam borsa, yana qaytadi, birinchi marta ketib qolishi emas. Shu onasining sannashi ham jonga tegdi: "Birov senga daraxtga chiqib yong'oq qoqqin, deganmidi?" Har gal shu gapini takrorlaydi. Uyda hech kim yo'qligidan foydalanib, bozorga olib chiqib pullamoqchiydi, bor gap shu. Yiqilib, mayib bo'laman, deb chiqibdimi?

Kun peshinga og'di hamki onasidan darak yo'q. Ertalab javray-javray tagini tozalab, chiqib ketganicha kelmaydi. Qorni och qoldi. Hamma yoq jimjit. Yonida turgan xontaxtaga umid bilan qaradi, bir piyola suvdan boshqa narsa yo'q. Ochlikdan battar g'azabi qo'zidi. Onasi bittagina non qo'yib ketsa bo'lardiku?! Qorin och bo'lsa, uyqu ham kelavermas ekan.

Onasi qora xuftonda kirib keldi.

– Qayerlarda yuribsiz, och qolib ketdim! – dedi Tursun zarda bilan.

– Qayerda yurardim, ochiq go'rda yuribman! – dedi ayol fig'oni falakka o'rlab. – Och qolgan bo'lsang, zaharni ye, zaqqumni ye! Urma, urma xotiningni, deb Xudoni zorini qildim, quloq solmading, endi o'tiraver boyo'g'liga o'xshab! Qarigan chog'imda menga shu azoblar ham bor ekan...

– Nima bo'ldi?

– Dard bo'ldi, balo bo'ldi! – dedi onasi unga ko'zlarini chaqchaytirib. – Gulsumning o'gay onasi ostonasini hatlashim bilan meni itdek taladi. Seni qamatar emish. Qo'lida allaqanday qog'ozlar, aytmagan gapi qolmadi. Kasalvand go'dakka ham rahm qilmaydigan hayvonlar, deb qichqirib, hammani boshiga to'pladi. Borganimga ming-ming pushaymon yedim. Sen bilan ovora bo'lib, tuzuk-quruq surishtirmabman, hang-mang bo'lib qoldim. Gulsum ajrashishga ariza beribdi, bir balo orderi bormish, qizingga, yo o'ziga yaqinlashsang, o'sha zahoti senga chora ko'rarmishlar. O'sha kuni uyda emas edim, desam, "Uyda vaqtning ham yegan kaltaklarining o'mi tuzalgani yo'q", deb ayyuhannos soldi. O'zi nima bo'lgan edi, juvonmarg, uydan o'lik ko'targandek ko'tarib chiqqanmish, Hafiza bilan mo'ntoq o'g'li? Sen qaysi go'rda eding?

– O'sha kuni... ertalab ivirsib ishi bitmadi, choy-poy olib kel, desam, qizini bahona qildi, sabr qilib turing, deb. Jahl bilan bir-ikki tepdim, shu. Keyin ko'chaga chiqib ketdim.

– Rostdan ham birpas sabr qilsang, ochingdan o'lib qolarmiding! Mana, kechadan beri birov bir parcha non tutmadi, o'lib qolmading. Mo'ntoq o'sha kuniyoq doktorga olib boribdi. Hozir ona-bola Toshkentda emish, qizing yurib ketadi, deyishibdi. Ertaroq qaratsang, hamma bola qatori chopqillab yurgan bo'lar edi, debdi do'xtirlar.

– Birovning oilasi bilan qo'shning nima ishi bor, bo'libam mo'ntoqing...



– Hayvon dema, – dedi qaynonasi otdan tushsa ham, egardan tushgisi kelmay, – yaxshimi, yomonmi, qizingning otasi...

– Shu ham otami?! – dedi Gulsum dard to'la ovozd. – Men hamma narsaga chidashim mumkin, ammo qizimga ozor bersalar, toqat qila olmayman. Qizim qo'rqmasin deb kaltaklariga jim chidadim, ammo u qarab turgandi. Jonim og'riyotganini go'dak tanasida his qilib turardi. "Ayamni urmang", deb zorlanib oyog'iga yopishganida nima qildi, a?! Kuchukvachchadek siltadi, qo'rqqanidan siyib qo'ydi, burnidan qon keldi... Ko'zlarida qotib qolgan dahshatni unutilmayman. Bolamga qarab intilganimda boshimga tushgan zarbadan hushimni yo'qotdim. Agar Hafiza opa bilan Zarif yordam bermaganida, ehtimol, qarshingizda turmagan bo'lar edim. Men avvalgi Gulsum emasman! Ortiq sabrim qizimga zulmdan boshqa narsa emasligini tushundim.

– Haa, eshitdik, hamsoya bilan mo'n... o'g'liga o'zingni ko'tartirib chiqqaningni! – dedi eri yotgan joyida ijirg'anib.

– Tursun, sen hech otini tutmay, mo'ntoq deb laqab qo'yib olgan o'g'limning ismi Zarif, – dedi qo'shni ayol xiyol ovozi titrab. – Nogiron bo'lsa ham, ayrim sog'lardan yaxshiroq. U juda ta'sirchan yigit. Janjalning devor osha biznikiga ham eshitaladi. Devor hamma ovozni ham yutmas ekan. Gulsum bilan qizchasi yig'laganida u o'zini qayerga qo'yishni bilmay qolar edi. "Aya, bu ayol nega bunday azobga ko'nib yashayapti, uning hech bir himoyachisi yo'qmi?" deb so'rardi. "Birovning oilasiga aralashma", deb necha bor to'xtatib qolganim yolg'iz Allohga ayon. Oxirgi janjalda to'xtata olmadim. Qizaloq jon achchig'ida chinqirdi-yu, jimib qoldi. O'g'limning ortidan yalangoyoq qanday yugurib kelganimni bilmay qoldim. Yaxshiyam kelganimiz... Insonni inson shunchalik xo'rlaydimi?! Begona emas-ku?! Yarimjon qizaloq sening ham farzanding-ku?! Nahotki, rahming kelmasa...

– Bitta bolani ham eplab tug'olmadi...

– Aslida sen ota bo'lolmading! – dedi keskinlik bilan Hafiza.

– Opa, gaplaringiz bunga chivin chaqqanchalik ta'sir qilmaydi, – dedi Gulsum Hafizaga qarab. – Nega kelganimni bilsin, yetarli!

Inspektor yigit qo'lidagi bloknotiga bir qarab oldi-da, ish sudga oshgudek bo'lsa, bir necha moddalar bilan ayblanishi, qamoq ehtiyot chorasi uning hozirgi holatiga ko'ra to'xtatib turilishi, xotining talablari u tomonidan qabul qilinsa, da'vo ochmasligi, ajrim va uni otalik huquqidan mahrum qilish bilan cheklanishini tushuntirdi.

Tursun yotgan joyida bo'g'riqib ketdi.

– Roziman, ajrimgayam, unisigayam... – dedi gezarib.

Gulsum achchiq kuldi. Tursunga yaqinlashib, engashdi va bir qo'li bilan yostiqli to'g'rilagan bo'lib, yelkasidan bosdi. Erkak og'riqdan jon achchig'ida bo'kirdi.

– Nima qilyapsan, yashshamagur! – deya baqirdi Tursunning onasi Gulsumni siltab tortar ekan.

Alamzada ayol uning baqirishiga parvo qilmay, Tursunning ustidan choyshabni tortdi. Hamma jim bo'lib qoldi.

– Tagingni ho'llab qo'yibsan! – dedi Gulsum past ovozd nafrat bilan. – Ojizlik qanday bo'lishini bildingmi?! Bu kuningdan battar bo'!

Tursun uyat va alamdand, g'azabdan ko'karib ketdi, ammo lom-mim deya olmadi. Gulsum tashqariga chiqdi. Ko'kragini to'ldirib toza havodan nafas oldi. Orzulari toptalgan, inson o'mida ko'rilmagani xonadonga so'nggi bor boqdi. Darvozadan qolganlarni kuzatib chiqayotgan Tursunning onasi qiqirlab kulib, bir qo'lli yigitga erkalanayotgan qizaloqni ko'rib, qotib qoldi. Hech ovozi chiqmagan, onasidan ham battar siniq, odamovi nabirasi yura boshlabdi, sayroqi qushchadek tiniq ovozi bor ekan. Uni o'ziga chorlagisi keldi, ammo... Ohhh, nobakor o'g'il, nomard o'g'il... Shu payt qizaloq unga ko'zi tushgani hamon Zarifning ortiga berkindi. Buvining o'pkasi to'ldi, ko'zyoshini ko'rsatmaslik uchun o'zini ichkariga oldi. Gulsum va qizalog'isiz bu hovli naqadar g'arib, huvullab qolganini his qilib, yopiq darvozaga peshonasini tiraganicha yig'lab yubordi.

– Senga kim qo'yibdi mo'ntoqlashni! – dedi ayol jazavaga tushib. – Bir qo'lsiz tug'ilgan bo'lsa ham, senga o'xshagan butundan o'lsa, o'ligi ortiq ekan. Mahallaning hamma bolasini kompyuterga o'qitarmish. Qurdirgan uylarini ko'ryapsanmi? Soyasida qolib ketganingni ham sezdingmi? Mehribonchiligi ham bejiz emasdir, kim biladi, ko'ngli sust ketib yurgan bo'lsa, uylanib ham olar...

Tursun alamiga chiday olmay, chala sog' qo'li bilan piyolani olib, eshikka otdi. Onasi bir muddat uning gezargan yuziga qarab turdi-da: "Bu hunarlaringni Gulsumga qilarding, oxiri chidolmadi, ketdi-qutuldi, mening esa sensiz ham tashvishim yetarli!" deb eshikni qars yopib, chiqib ketdi. O'g'il tishlarini qisirlatganicha qolavardi.

Ertalabdan darvoza taqilladi. Ayol darvozani ochib, shoshib qoldi. Gulsum... Yolg'iz emas, uchastka inspektori, qo'shnilari Hafiza. Ona ulami o'g'li yotgan xonaga boshladi. Eshik ochilishi bilan badbo'y hid dimoqqa urildi, ivirsigan xonada soch-soqoli o'sgan irkit holdagi Tursun kelganlarga hayron qarab qoldi.

– Mana, ikki oydan oshyapti, shu ahvolda yotibdi, joni azobda bechora bolamning, – dedi yig'lamsirab. – Endi qaridim, kap-katta odamga qarashning o'zi bo'lmaydi. Har qanday oilada ham gap-so'z, kelishmovchiliklar bo'lib turadi, biz ham suv kelsa, simirib, tosh kelsa, kemirib, shu kunlargacha keldik. Yoshlar ham biroz sabrli bo'lsaydi...

Shu gaplarni aytayotib o'ziga qattiq tikilib turgan Gulsumga ko'zi tushib, nafasi ichiga tushdi. Uning nigohlarida avvalgi siniqlikdan, tobelikdan asar ko'rmadi. Yurakka qo'rquv soladigan allaqanday shiddat bor.

– Sabr qilib, yana shu hayvonning xo'rliklariga chidash uchun qaytib kelaymi? – dedi qaynonasining ko'zlariga tik qarab.

Nufuzli sport musobaqalarini tomosha qilgan ekanmiz, yurtimiz vakillariga muxlislik qilishimiz tabiiy. Ayniqsa, yuqori cho'qqini zabt etgan g'olibimiz sharafiga ko'tarilgan Vatanimiz bayrog'i, jarang sochgan madhiyamizni tinglaganimizda tanamiz titraydi. Beixtiyor, voyaga yetkazgan ota-onangga, tarbiyalagan ustozingga ming rahmat, deymiz.

BO'LAJAK CHEMPIONLAR tarbiyalanayotgan maskan

Aksar insonlar o'z farzandlarini ham chempionlar o'rnida ko'rishni istashi sir emas. Buning ortida timimsiz mehnat, bedor tunlar hamda murabbiylarning mashg'ulotlar ustida shogirdlariga bag'ishlagan umri yotganini doim ham his qilavermaymiz.

Maktab yoshiga yetgan farzandini sport to'garaklariga yetaklab borayotgan ota-onalar avvalo yaxshi murabbiyni, keyin esa jihozlangan sport zallarini istaydi. Qolaversa, bunday qulayliklarga ega bo'lgan to'garak yashash joyiga yaqinroq bo'lsa, nur ustiga nur bo'lar edi. Bugungi kun mutasaddilari ham xuddi ana shunday imkoniyatlarni yaratish ustida ish olib bormoqda. Chekka qishloqlarda yashab, sharoit yo'qligida o'zidagi qobiliyatni yuzaga chiqarolmay, boshqa kasbni tanlab ketgan insonlar qancha...

Toshkent viloyatining Zangiota tumanida joylashgan harbiy qismda barcha sharoitlarni o'z ichiga olgan sport to'garagi yo'lga qo'yilgan. Ajabmas, yaqin kelajakda to'garak a'zolari orasidan Diyora Keldiyorova va Ulug'bek Rashitov singari Olimpiada chempionlari yetishib chiqsa.

Ushbu harbiy qismda to'garagimiz tashkil etilganiga ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsa-da, mashg'ulotlarga qatnashish istagini bildirgan yoshlar juda ko'pchilikni tashkil qilmoqda. Avvalo, yaratilgan sharoitlar talabgorlar e'tiborini tortayotgan bo'lsa, ota-onalar uchun

ham bolasining xavfsiz hududda vaqtini foydali mashg'ulotlar bilan o'tkazayotgani ayni muddao, - deydi to'garak murabbiyi Olimjon Hayitov. - Bugungi kunda to'garagimizda 6-11 yoshdagi bolalar, 11-13 yoshli o'smirlar va 16 yoshdan kattalar uchun alohida guruhlar tashkil etilgan. Unda milliy kurash, dzyudo, aralash jang va jiu-jitsu yo'nalishlari bo'yicha mashg'ulotlar olib boriladi. O'tgan vaqt mobaynida shogirdlarimizni 10 dan ortiq musobaqaga jalb etdik. Tabiiyki, boshida ularda hayajon bo'ldi. Hozir esa barchasi joyida. Har qanday musobaqada raqibining ko'ziga tik qarab, kurasha oladigan yigit-qizlar bo'lib yetishmoqda.

Zangiota tumani 2-sonli sport maktabi bilan hamkorlikda ochiq chempionat o'tkazdik. Unda Toshkent shahri va viloyatidan turli jamoalar qatnashish istagini bildirdi. Bu biz tarbiya qilayotgan to'garak a'zolarining tajribasi uchun juda muhimligini his qilgan holda taklifni qabul qildik. Musobaqaga tashrif buyurgan ishtirokchi va mutasaddilar zalimzda yaratilgan sharoitni ko'rib, lol qoldi. Chunki harbiy qismda joylashgan to'garagimizda yaratilgan imkoniyatlar unchamuncha joyda yo'q. Buning uchun albatta harbiy qism rahbariyatiga minnatdorligimizni bildiramiz.

E'tiborimizni mashg'ulotlarda ishtirok etayotgan eng kichik guruhning jajji a'zolari tortdi.

Ularning xatti-harakatlari, berilgan topshiriqlarni bolalar boshqarib turardi. Qaysi birining belbog'i yechilib ketgan, qaysidiri berilgan topshiriqni teskari tomon bilan bajarmoqda.

- To'garakning jajji a'zolari bilan mashg'ulotlarni men olib boraman, - deydi Marhabo To'rayeva. - Ularning yoshi 5-6 da bo'lgani bois o'ziga yarasha erkali ham bor. Shuning uchun ularga qattiq gapirib bo'lmaydi. Aksincha, topshiriqlarni yaxshi gaplar bilan bajartiramiz. Jussasi kichkina bo'lgan bolajonlarga beriladigan yuklamalar ham o'zining yoshiga mos ravishda olib boriladi. Bir yilga qolmay, ular ham kurashning sir-sinoatini o'rganib oladi. Ungacha sabr-toqat va qo'ng'irlik bilan o'rgatishdan to'xtamaymiz. Bundan tashqari, o'rta va katta yoshdagi o'smirlar yig'ilgan guruhda ham mashg'ulotlar o'tkazaman. Ularga milliy kurash va dzyudo sir-

sinoatlarini o'rgatib kelmoqdaman. Shuningdek, imkoniyati cheklangan yoshlar va kattalar bilan ham paradzyudo mashg'ulotlarini olib bormoqdaman. Ularning kelajagi hali oldinda bo'lishiga qaramasdan, yaqinda bo'lib o'tgan paradzyudo bo'yicha O'zbekiston chempionatida to'garagimiz a'zosi Charos Choriyeva 87 kilogramm vazn toifasida faxrli III o'rinni qo'lga kiritdi hamda yurtimiz terma jamoasi safiga qo'shildi.

To'garak o'tkazilayotgan zal issiq, bolalarning yengil kiyimlarda bemalol harakatlanishi uchun sharoitlar yaratilgan. Uch bosqichda o'tkazilayotgan mashg'ulotlar tananing qizdirish mashqlari bilan boshlanib, osondan qiyinga qarab rivojlanib boruvchi yuklamalar jarayonini o'z ichiga oladi. Buning natijasida ko'zlarida umid uchqunlari chaqnaq turgan o'g'il-qizlar musobaqalarga o'zgacha zavq bilan tayyorgarlik ko'rmoqda.

- Birinchi farzandim mana shu to'garakka qatnashni boshlaganidan keyin qolgan ikki o'g'lim ham mashg'ulotlarga borishga qiziqdi, - deydi Hasan Mirahmedov. - Hozirda yakkakurashning dzyudo turi bilan muntazam shug'ullanib kelmoqdalar. Ular sportga qatnashmasdan oldin ancha dangasa edi. Ertalab uyqudan uyg'onishi ham qiyin kechardi. Murabbiyning qat'iy talabi va u tomonidan qo'yilgan yuklamalarni bajarish asnosida o'zlarida intilish paydo bo'ldi. Sport ularga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Hatto uy ishlariga ham ko'maklasha boshlaganlar. To'garakda mashg'ulotlarni o'tkazayotgan murabbiylar farzandlarimning tarbiyasi bilan

ham muntazam shug'ullanib kelmoqda. Katta o'g'limning kelgusidagi maqsadi - harbiy xizmatchi bo'lish. Uning maqsadi yo'lida bor kuch-g'ayratimni ayamayman. Sport insonga hech qachon yomonlik keltirmaydi. Aksincha, uning jismonan baqvvat, ma'naiy barkamol bo'lib shakllanishida juda katta yordam berarkan. Men buning isbotini bolalarimda ko'rib turibman. Barchaga ikkilanmasdan bolalarini sportga oshno etishlarini tavsiya qilaman. Qolaversa, harbiy qism rahbariyatiga ham rahmat aytaman, bolalarimiz to'garaklarga bemalol qatnashida ko'nglimiz xotirjam.

Ming bora eshitgandan bir bora ko'rgan afzal. Shunday ekan, sport yo'nalishi bo'yicha harbiy qismlarda yaratilgan sharoitlarni borib ko'ring va o'zingiz bunga guvoh bo'ling. Bugungi mavzumiz Zangiota tumanidagi harbiy qismda yaratilgan sport to'garagi bo'lgan bo'lsa, keyingi sonlarimizda boshqa harbiy qismlarda yaratilgan sharoitlar bilan ham tanishtirib borishni niyat qilganmiz.

Aytgancha, harbiy qismlarda faqatgina sportga ixtisoslashtirilgan to'garaklar emas, balki fan va kasblarga yo'naltirilgan to'garaklar ham mavjud bo'lib, unda o'z kasbining mutaxassislari yoshlar bilan mashg'ulotlarni muntazam olib bormoqda. Bundan ko'zlangan birgina maqsad bor: "Xalq va armiya bir tan-u bir jondir" shiori ostidagi harakatlarning uzviy bardavom ekani.

Sherzod SHARIPOV,
"Vatanparvar"



Ajoyib va mehmonnavoz xalqimiz bor-da. Mehmon keldi deguncha topganini dasturxoniga qo'yadi. Ammo yurtdoshlarimiz orasida mehmonni kutish kerak, deya ortiqcha isrofgarchiliklarga yo'l qo'yayotganlarning ham borligi achchiq haqiqat.

OLDINGDAN OQQAN SUVNING

QADRI YO'Q

Ko'cha-ko'yda sayr qilar ekansiz, yo'l chetlariga, ariqlar ichiga tashlab ketilgan axlatlar natijasida obihayot atalmish suv bulg'anayotganining beixtiyor guvohi bo'lasiz.

Ajdodlarimiz suv, havo, olov va tuproqni muqaddas deb bilgan. Muqaddas "Avesto" kitobida yozilishicha, suv ifloslantirilgani uchun o'lim jazosi belgilangan ekan. Yaqin-yaqingacha momolarimiz suvga axlat tashlash tugul tupurishni ham gunoh deb bilgan. Bugun esa vaziyat

butunlay boshqacha: ariqqa qarab supuramiz, barcha chiqindilarni oqar suvga tashlaymiz, hatto kanalizatsiya quvurlarini-da hovli yonida oqib o'tayotgan ariqqa to'g'rilaymiz. Balki, shuning uchun ham, keksalarimiz tandirdan yangi uzilgan issiq nonlarni ariqqa oqizib yegani haqidagi bolalik hikoyalari ko'pchilikka ertakdek tuyular. Axir axlatlarga to'la, suvi ifloslangan ariqqa qanday qilib non oqizish mumkin?!

Shu o'rinda do'stim aytib bergan bir voqeani keltirib o'tsam.

Bir kuni xorijiy mamlakatdan yurtimizga mehmonlar tashrif buyuribdi. Suhbat davomida bir yurtdoshimiz mehmonlarga: "Nega sizlarda isrofgarchiliklar ko'p? E'tibor bersam, oziq-ovqat mahsulotlarini axlatga tashlar ekansizlar. Nega?" deya savol beribdi. Shunda mehmonlar kutilmagan savolga achchiq, ammo haqiqat aks etgan javob qaytaribdi:

– Biz oziq-ovqat mahsulotlari haddan tashqari ko'pligi uchun axlatga tashlarmiz, biroq suvni siz kabi isrof qilmaymiz.

Suvning bebaho ne'mat ekanini yaxshi bilamiz. Siz esa axlat-u o'zingizdan ortgan oziq-ovqatlarni suvga tashlab, uni uvol qilyapsiz. Aslida, suv poklik, salomatlik manbai sanaladi.

Ha, mutaxassislar suv badanni pok qilibgina qolmay, balki terining "ko'zi"ni ochadi, bosh miya hushyor tortadi, nafas olish ravonlashadi, yurak dadil uradi, deb ta'kidlashi bejiz emas. Demak, keksa otaxon-u onaxonlarimizning suvni asra, uni isrof qilma, degan so'zlarida ulkan hikmat bor.

Hech o'ylab ko'rganmisiz, nega borgan sari ekologik muammolar keng tus olmoqda? Nega odamlar orasida yuqumli kasalliklar ko'paymoqda?

Javob aniq: ayb o'zimizda. Tabiatga yetkazayotgan zararlarimiz uchun u bizdan o'ch olmoqda. Shuning uchun ham butun insoniyatning hayoti, salomatligi xavf ostida qolmoqda. Eng yomoni nima, bilasizmi? Ekologik muammolar bolalar hayotiga raxna solayotganida. Chunki zararli ekologik muhit sababidan xromosomalarda norasolik vujudga keladi. Bu esa, o'z navbatida, aqliy va jismoniy rivojlanishdan ortda qoladigan nogiron bolalar dunyoga kelishiga sabab bo'ladi. Onkologik xastaliklarning sabablari ko'p, ammo mutaxassislar unga ham asosan ekologiyaning yomonlashayotgani sabab ekanini aytadi. Yana qaysi hududda ekologik holat tang bo'lsa, o'sha yerning bolalarida xavfli o'smalar ko'p kuzatilar ekan.

Demak, bu kabi muammolarning oldini olish uchun aholida hozirdanoq ekologik madaniyatni oshirishimiz dardkor. Tabiat ne'matlaridan oqilona foydalanishni o'rganishimiz lozim.

Sohiba NUSRATULLAYEVA,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti 2-bosqich talabasi

Har bir kesilgan daraxt ekologiyaga qilingan suiqasddir. Afsuski, 2024-yilning oktabr oyida Toshkent dunyo bo'yicha eng ifloslangan shaharlar orasida 2-o'rinni egalladi. IQAir va mahalliy manbalar bergan ma'lumotlarga ko'ra, shahardagi $RM2.5$ zarrachalar miqdori 166 mkg/m^3 darajaga yetdi, bu esa Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan belgilangan me'yorlardan 15 baravar yuqori.

Havo ifloslanishiga asosan transport chiqindilari, qurilish ishlari, yomon shamollatish va shaharda yashil hududlarning kamligi sabab bo'lmoqda. Yuqorida keltirilgan sabablarning eng oxirgisiga e'tibor bering. Xo'sh, yashil hududlarning kamayishi qanday yuzaga keladi? Keling, buni soddaroq tushuntirishga harakat qilib ko'ramiz.

Quruvchi Toshmat aka dastlab ko'p qavatli uy qurish uchun tanishlari orqali tenderdan yer yutib oladi. Keyin bankdan hamma ishni pishitib, olingan yerga borsa, 10-15 tup daraxt dushmanga qarshi turgan askarlardek tizilib yo'lga peshvoz chiqadi. Bundan Toshmat akaning kayfiyati tushadi. Axir uning maqsadi baland imorat qurib, poytaxt chiroyiga chiroy qo'shish edi-ku. Shunday oliy maslagiga qayoqdagi daraxtlar to'sqinlik qilishi kerakmi? Albatta, yo'q. Shu "arzimagan" yog'ochlarning kesilishi kimga qanday ziyon keltirardi? O'ylab o'tirmasdan, shart kesadi-qo'yadi. Jarima deb kelganlarga esa Franklin "tog'asi"ning surati tushirilgan

qog'oz puldan bir nechtasini berib qo'ysa, ular ham zulmatda hech narsadan bexabardek ortiga qaytib ketadi. Ammo, lekin, biroq... vaziyat u darajada arzimagan emas.

Toshkentda 2024-yilning o'tgan davri davomida daraxtlarning noqonuniy kesilishi bilan bog'liq 87 ta holat aniqlanib, tabiatga jami 817,3 million so'm zarar yetkazilgan. Lekin bu zarar nafaqat tabiatga, balki millat kelajagiga behisob zarar keltirishi mumkin, desam, ishonasizmi? Hozir tushuntiraman.

Shahardagi sanoat korxonalarini, ishlab chiqarish zavodlari va avtomobillar havoga zararli

ZAHARLANAYOTGAN

tabiat



kimyoviy gazlarni ishlab chiqaradi. Ularning ba'zilar havodan yengil bo'lib, azon qatlamini yemirsa, ayrimlari havodan og'ir bo'lib, atrofdan saqlanib qoladi. Daraxt va o'simliklar bu gazlarni yutib, kislorod ishlab chiqarishi barchamizga ma'lum. Shunday ekan, daraxtlarning kesilishi bevosita bu gazlarning saqlanib qolishiga sabab bo'ladi. Bu gazlardan nafas olayotganlar sog'lig'iga yetayotgan ziyonni qo'ya turing, tug'ilayotgan go'daklarga yetishi mumkin bo'lgan zararining o'zi daraxtlar kesilishiga sabab bo'layotgan poytaxtdagi jamiki binolardan olinayotgan foydadan ko'ra yuz chandon qimmatliroqdir. Toshkentdagi hozirgi havo ifloslanishi kelajakda tug'iladigan bolalarda ayrim irsiy kasalliklar va sog'liq bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Havoni ifloslantiruvchi asosiy moddalar – og'ir metallar (masalan, qo'rg'oshin va simob), ozon, azot, oltingugurt oksidlari va boshqa

toksik gazlar DNK tuzilishiga zarar yetkazishi yoki irsiy kasalliklarga moyillikni oshirishi mumkin.

1. Genetik mutatsiyalar: ifloslanishga ta'sir qiluvchi kimyoviy moddalar hujayra DNKsiga ta'sir qilishi va mutatsiyalarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday mutatsiyalar irsiy ravishda keyingi avlodlarga o'tib, rivojlanishdagi nuqsonlar yoki kasalliklarga moyillikni oshirishi mumkin.

2. Onkologik kasalliklarga moyillik: atmosferada mavjud toksik moddalar o'pka, jigar va boshqa a'zolar hujayralarida mutatsiyalarni qo'zg'ashi mumkin, bu esa bolalarda saraton kasalligiga moyillikni oshiradi.

3. Nafas olish tizimi kasalliklari: havo ifloslanishiga aloqador ba'zi komponentlar irsiy yo'l bilan o'pka va nafas olish tizimi kasalliklariga olib kelishi mumkin. Bunga astma, surunkali obstruktiv o'pka kasalligi kiradi.

4. Tug'ma nuqsonlar va o'sishdagi orqada qolish: ba'zi tadqiqotlar ko'rsatadiki, havoning yuqori darajada ifloslanishi homilaning normal rivojlanishiga

xalaqit berishi mumkin. Bu tug'ma nuqsonlarga yoki bolalar o'sishdagi orqada qolishga olib kelishi mumkin.

5. Immun tizimi zaiflashishi: atmosfera ifloslanishi ba'zan immun tizimining irsiy zaiflashishiga ham sabab bo'ladi, bu esa kelajak avlodlar uchun infeksiyon kasalliklarga qarshi chidamlilikni susaytirishi mumkin. Bunday nuqsonlar bilan tug'iladigan bolalar esa millat shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda tabiat muhofazasi to'g'risidagi qonunlar keskinlashtirilmas ekan, ayrim "uyqudagi" amaldorlar uyg'otilmas ekan, yoqilayotgan zazonlarga o'tga tashlanayotgan go'daklardek, kesilayotgan daraxtlarga esa millatga qilingan suiqasdek qaramas ekanmiz, dunyo nigohida tabiat qotili sifatida gavdalanib qolish hech gap emas.

Ikromxo'ja SADILLAYEV,
TDSu Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti xalqaro jurnalistika yo'nalishi talabasi



NIMA UCHUN HAR KUNI PIYODA YURISH KERAK?

Piyoda yurish jismoniy faoliyatning bir turi hisoblanadi. Xo'sh, uning salomatligimiz uchun qanday foydasi bor? Piyoda yurish avvalo immunitet tizimini, yurak va qon tomirlarni mustahkamlaydi, qon bosimi normallashtiradi, to'qimalarning insulinga sezgirligini oshirish orqali diabet rivojlanish xavfini kamaytiradi, ortiqcha vazni kamaytirishga (agar siz har kuni yurib, bir necha ming qadam tashlasangiz) yordam beradi.

Chunki piyoda yurish paytida kaloriya besh baravar ko'p yoqiladi. Yurak urish tezligining oshishi tufayli tanada qon oqimi kuchayadi. Natijada mushaklar kislorod bilan yaxshi ta'minlanadi. Yana mushaklarni tonusga keltiradi, uyquini va kayfiyatni yaxshilaydi, energiyani oshiradi. Shuningdek, asab tizimining barvaqt ishdan chiqib qolishidan, qattiq charchashdan saqlaydi, umrning sermazzmun bo'lishiga yordam beradi. Shunday qilib, bir soatlik yurish orqali inson umrini ikki soatga uzaytiradi. Bu ko'plab tadqiqotlarda aniqlangan.

Hozirgi urbanizatsiya davrida kamharakatlilik barcha mamlakatlarda aholining katta muammolaridan biriga aylangani hech kimga sir emas. Insonlarda diqqat-e'tiborni jamlashning sekinlashishi, depressiya, turli kasalliklarga tez chalinuvchanlik, bosh og'rig'i, uyquchanlik, xotiraning pasayishi, sababsiz charchash hissi, vazn ortishi bularning asosiy oqibatlaridir. Bu ro'yxatni uzoq davom ettirish mumkin. Ammo bu muammolar majmuasiga ko'proq piyoda yurishni odat qilish orqali yaxshigina zarba bersa bo'ladi.

SALOMATLIK UCHUN 10 MING QADAM

Keling, shu o'rinda sog'lom, uzoq va sermazzmun hayot kechirish uchun qancha yurishingiz kerakligi va 10 ming qadam haqidagi trend qayerdan paydo bo'lganiga aniqlik kiritsak.

Ma'lumki, jismoniy faollik inson salomatligi, tana tuzilishi va kayfiyatni yaxshi saqlashda muhim ahamiyatga ega. Buni ko'pchiligimiz bilamiz. Shunday bo'lsa-da, kundalik tashvishlar, ish va boshqa sabablar tufayli sport bilan shug'ullanishni doim ortga suramiz. Unutmang, piyoda yurish ham sport turi sanaladi. U jismoniy faoliyatning eng qulay va oson shakli hisoblanadi. Maxsus tayyorgarlik, sport jihozlari va xarajatlarni talab qilmaydi, lekin shu bilan birga inson salomatligiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yaqin yillardan buyon inson har kuni kamida 10 ming qadam yurishi kerak, degan fikr paydo bo'ldi. Umuman olganda, bu gipoteza inson qanchalik ko'p piyoda yursa, shuncha yaxshi ta'sirga ega bo'lishini anglatadi. Biroq ba'zi shifokorlar bunga qo'shilmaydi. Nega? Gap shundaki, ba'zi piyodalar, masalan, keksalar yoki ortiqcha vaznli odamlar uchun bunday masofalarni bosib o'tish qiyin. Ular uchun tufayli qadamlar soniga emas, balki yurish vaqtiga sarflash ancha samaralidir. Eng yaxshi variant 30-60 daqiqa davomida o'rtacha tezlikda yurish hisoblanadi. Bunday yurishlar har kuni davomiy tarzda amalga oshirilishi kerak. Piyoda yurishning eng qulay shakli odamning peshonasida ozgina ter paydo bo'ladigan darajada tezlikni tanlashidir.



SUZISH, RAQSGA TUSHISH YOKI YUGURISH

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti kattalarga haftasiga 150-300 daqiqa yurishni tavsiya qiladi. Agar yurishdan zeriksangiz, uni boshqa o'rtacha aerobika mashqlari bilan almashirsangiz bo'ladi. Masalan, suzish, raqsga tushish yoki yugurish bilan shug'ullansangiz ham, salomatlikni saqlash borasida yaxshi natijalarga eshishishingiz mumkin.

QANDAY QILIB PIYODA YURISHNI KUNLIK ODATGA AYLANTIRSA BO'LADI?

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, har kuni oz masofaga bo'lsa-da piyoda yurmagan inson doimiy stressda yashaydi. Psixologlar yurish insonning ruhiy va aqliy salomatlikka katta foyda keltirishini, shuning uchun tabiat qo'ynida sayr qilish deyarli hamma uchun tavsiya etilishini ta'kidlaydi. Chunki yurish paytida tanamiz stress darajasini pasaytiradigan va kayfiyatni yaxshilashga yordam beradigan serotonin va endorfin gormonlarini ishlab chiqaradi. Bundan tashqari, xavotirlanish darajasini oshiradigan stress gormoni - kortizol darajasi kamayadi. Shunday ekan, yurishni odatga aylantirish har bir inson uchun birdek muhim va zarur sanaladi.

Kam harakatli insonlar qanday qilib piyoda yurishni kundalik mashg'ulotga aylantira oladi? Buning uchun ular dastlabki kunlarni kichik jismoniy mashqlar bilan boshlashi kerak. Masalan, birinchi kunlari 10-15 daqiqa, keyingi kunlari 20-30 daqiqa ko'chaga chiqib piyoda aylanadi. Vaqt o'tishi bilan bosib o'tgan vaqt va masofani oshirib boradi. Aylanish jarayonida tezlikka zo'r berib, tanani zo'riqtirish kerak emas. Ofisda ishlayotganlar esa vaqti-vaqti bilan o'rnidan turib, harakatlanib turishi foydalidir. Ular uchun yana tushlik tanaffusida piyoda sayr qilish eng maqbul yo'l sanaladi.

Darvoqe, piyoda yurishni kunlik odatga aylantirishni boshlash uchun qo'l telefoningizga maxsus dasturni sozlagan holda yurak urishi tezligini, sarflangan kaloriyalarni, bosib o'tilgan qadamlar hisobini bilib borsangiz bo'ladi. Qulay poyabzal, bir idishda suv va o'zingiz yoqtirgan yaxshi musiqani tinglashingiz yoki samimiy suhbatdosh bilan hamroh bo'lishingiz bu mashg'ulotni yanada yoqimli qiladi.

Yana bir gap: mashg'ulotni boshlaganda chuqurroq nafas olishga intiling va yurayotgan paytingizda bemalol gapira olishingizga hamda nafas ravonligi bilan qadamingiz hamohang bo'lishiga e'tibor qarating.

QAYSI VAQT YURGAN MA'QUL?

Ertalab, nonushta qilib bo'lgandan so'ng ishga ketadigan payt piyoda yurish juda ham foydali. Bu vaqtda havo musaffo - toza bo'ladi. Kechki ovqatdan so'ng ham 30-40 daqiqa piyoda yurish tiniqib uxlashga va organizm salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ochiq havoda yurish jarayonida odam, istasa-istamasa, uzoqlarga tikilib, tabiat manzaralarini tomosha qilishi qon aylanishini yaxshilab, ko'rish qobiliyatini oshiradi. Aqliy faollik ortib, kislorod bilan to'yingan organizmda gormonlar yaxshi ishlab chiqiladi.

Shu bois ishdan charchab chiqqaningizdan keyin ham, iloji bo'lsa, transportga chiqishga shoshilmang. Yo'lning bir qismini piyoda bosib o'ting. Asabiy ish kunining "yuk"laridan xalos bo'lmoqchi bo'lsangiz, unda har kuni bir necha o'n daqiqa piyoda yurishga harakat qiling.

Insoniyat kamroq yurish uchun taraqqiyotning qanday yutuqlarini o'ylab topmadi deysiz. Avtomobil, eskalator, lift, velosiped, sigvey, elektrosamokat kabi tayyor "dastyor"larning borligi yaxshi albatta. Lekin, afsuski, insonlar kamharakat bo'lib qoldi. Piyoda yurish salomatlik uchun koni foyda bo'lsa-da, ko'pchilikning bu mashg'ulot bilan shug'ullanishga erinishi g'oyat achinarli.

Yodingizda bo'lsin, salomatlik - bu muntazam harakatni yaxshi ko'radigan tizim. Ya'ni u sizning odatlaringizdan iborat. Qachonki jismoniy faoliyat kundalik hayot tarzingizdan o'rin olsa, o'shandagina sog'lom va uzoq umr ko'rasiz.

G. XODJAMURATOVA tayyorladi.

Ekskursiya

ASKAR



Sohibqiron Amir Temur ta'бири bilan aytganda, "Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning, ilm-u donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir". Shuning uchun ham mamlakatimizda kitobga bo'lgan munosabat, kitob o'qishga bo'lgan talab va kitobxonlikni targ'ib qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Ma'naviy yuksalish va vatanparvarlik kuni munosabati bilan Marg'ilon shahridagi harbiy qism harbiy xizmatchilarining Farg'ona shahridagi Ahmad Farg'oniy nomidagi viloyat axborot-kutubxona markaziga qilgan tashrifi ham shunday ezgu maqsad yo'lida amalga oshirildi.

Tashrif davomida kutubxona xodimlari askarlarni axborot-kutubxona faoliyati bilan, bu yerda kitobxonlar uchun yaratilgan shart-sharoit va ularga ko'rsatilayotgan xizmatlar, shuningdek foydalanuvchilarning kutubxonaga a'zo bo'lishidan boshlab elektron va an'anaviy katalog, kartotekalardan foydalanish, kerakli resurslarni izlash, ularga buyurtmani rasmiylashtirish kabi qoidalar bilan yaqindan tanishtirdi. Kutubxona tarixi va buguni haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Ma'lumki, ko'p ming kitob fondiga ega ushbu ziyo maskani bir qator rivojlangan davlatlardagi dunyoga mashhur kutubxonalar bilan ma'rifiy hamkorlik qiladi, o'zaro tajriba almashadi. Shuningdek, kutubxona nafaqat badiiy va ilmiy, balki tarixiy, lug'aviy, sohaviy va nodir adabiyotlarning ko'pligi bilan mamlakatimizda yetakchi o'rinda turadi.

- Kitob o'qishni yaxshi ko'raman. Bo'sh vaqtlarimdan unumli foydalangan holda harbiy qismimizdagi kutubxonada kitob mutolaa qilaman, - deydi muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Umidjon Latipov. - Kitob go'yoki sehri dunyoga o'xshaydi. Qancha ko'p o'qiganingiz sari yangi-yangi olamni kashf qilgandek bo'lasiz. Shuning uchun ham kitobni har doim o'zimga hamroh deb bilaman. Qolaversa, bugungi kunda harbiy xizmatchilarga bo'lgan talab va

KUTUBXONADA



munosabat ham tubdan o'zgaragan. Professional harbiy xizmatchi har jihatdan, ayniqsa ma'naviy jihatdan yetuk bo'lmog'i zarur. Bunda esa kitobning o'mi beqiyos.

- Yaxshi kitob o'qish insonga ma'naviy zavq beradi, - deydi yana bir kitobsevar oddiy askar Muzaffar Asadov. - Kutubxona hammamiz uchun ulkan imkoniyat. Shu bois undan unumli

foydalanishimiz kerak. Bugun bu ma'rifat maskaniga qilgan tashrifimiz kitobga bo'lgan mehrimni chandon oshirdi. Bu yerda har sohaga oid nodir kitoblar, qo'llanmalar va matbuot nashrlari bor ekan. Bunday imkoniyatdan unumli foydalanishimiz hammamiz uchun ayni muddaadir.

Mayor Farrux SANAYEV

Ogohlik - davr talabi



YANGI YIL BAYRAMINI BETALAFOT O'TKAZING

Sanoqli kunlardan so'ng barchamiz uzoq kutgan Yangi yil kirib keladi. Yangi yil archasini uy sharoitida xona ichiga o'rnatayotganda uni bemalol ko'chirish mumkinligiga va eshiklarni to'sib qo'ymasligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Archani tez yonuvchan o'yinchoqlar bilan bezatish, uning pastki qismini paxta bilan qoplash, shuningdek shamlar bilan bezatish aslo mumkin emas.

Mazkur qoidalar, tabiiyki, plastikdan yasalgan archalarga ham birdek taalluqli. Shuni unutmangki, plastikdan yasalgan archalar yonganida o'zidan juda ham zararli moddalarni chiqaradi. Yonib turgan plastmassa tomchisi inson terisiga tushsa, hatto cho'g' bo'lgan ko'mirdan ko'ra ko'proq ziyon yetkazishi mumkin.

Bayramdan keyin archani iloji boricha tezroq yig'ib olish kerak. Plastikdan yasalgan archani keyingi bayramgacha xavfsizroq joyga olib qo'yish, tabiiyki archani esa uy ichidan olib chiqish maqsadga muvofiq.

Elektr tokida ishlovchi o'yinchoqlardan foydalanganda, albatta sinchiklab tekshirish kerak. Birinchi navbatda, ularning izolyatsiyasiga e'tibor qaratish zarur. Shuningdek,

bunday turdagi o'yinchoqlar tegishli sertifikatga ega ekaniga ishonch hosil qilish lozim. Yaroqlilik muddati o'tib ketgan elektr tokida ishlovchi o'yinchoqlar inson salomatligiga xavf tug'diradi.

Ko'pchilik Yangi yil bayramiga mushaklar va boshqa pirotexnika vositalarini xarid qilishni istaydi. Ammo shuni yodda tutish lozimki, pirotexnika vositalaridan foydalanish nafaqat yong'inni keltirib chiqaradi, balki og'ir jarohatlarga ham sabab bo'ladi.

Pirotexnika vositalarining inson organizmiga salbiy ta'sirlari: tananing yuz, ko'z, qo'l sohalarda og'ir chuqur kuyish jarohatlarining yuzaga kelishi; ko'zlarning shikastlanishi natijasida ko'rish faoliyatining qisman yoki butunlay buzilishi;

olingan kuyish jarohatidan keyin plastik operatsiyalar o'tkazishga muhtojlik; kuygan sohalarda dag'al chandiqlar, qo'l barmoqlari sohalarda kontrakturalar hosil bo'lishi;

asoratlar bemorlarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi kuzatiladi.

Pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo'natish, ulardan foydalanish, xuddi shuningdek ularni qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasiga olib kirish, olib chiqish yoki o'tkazish, Jinoyat kodeksining 250¹-moddasi hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 185¹-moddasi asosida javobgarlikka tortiladi.

Mayor Ahmad ORIPOV,
Toshkent garnizoni yong'in
nazorati inspeksiyasi boshlig'i

Buni bilish shart!

ISITISHDA

YONG'IN XAVFSIZLIGI

Binolarda faqat sanoatda ishlab chiqarilgan issiqlik hosil qiluvchi qurilmalardan va isitish moslamalaridan foydalanishga ruxsat etiladi.

Isitish mavsumi boshlanishidan oldin pechlar, qozonlar, issiqlik hosil qiluvchi uskunalar hamda boshqa isitish anjom va tizimlari tekshirilgan, ta'mirlangan bo'lishi kerak. Nosoz isitish pechlari, qozonxona jihozlari, issiqlik hosil qiluvchi qurilma va boshqa isitish anjomlaridan foydalanish taqiqlanadi.

Suyuq yoqilg'ida ishlaydigan qozonxona jihozlarining issiqlik hosil qiladigan uskuna va isitish moslamalarining har bir forsunkasida qumli taglik bo'lishi kerak va yonilg'i tarmog'ida kamida ikkita ventili bo'lishi zarur (*birinchisi - o'choqda, ikkinchisi - yonilg'ili idishda*).

Qozonxona va boshqa issiqlik chiqaruvchi qurilmalardan foydalanishda quyidagilar taqiqlanadi:

- maxsus o'quv kursida o'qitilmagan va tegishli malakani beruvchi guvohnomaga ega bo'lmagan shaxslar ishlashiga yo'l qo'yilishi (*turarjoy binolarida o'rnatilganlar bundan mustasno*);
- qozonxonalar va issiqlik chiqaruvchi qurilmalar o'rnatilgan xonalarda suyuq yoqilg'i mahsulotlarini saqlash;
- isitish uskunalaridan foydalanish uchun texnik shartlarda ko'rsatilmagan neft mahsulotlari chiqindilaridan va boshqa yengil alanganuvchi hamda yonuvchi suyuqliklardan yoqilg'i sifatida foydalanish;
- yoqilg'i uzatish tizimidan suyuq yoqilg'i tomganda (*gaz sizib chiqqanda*) issiqlik o'tkazuvchi qurilmalardan foydalanish;
- qo'lbola yasalgan gaz gorelkalaridan foydalanish;
- o'chib qolgan forsunka yoki gaz gorelkalariga yoqilg'ini uzatish;
- uskunalarning yonish kameralarini shamollatmasdan yoqish, shuningdek mash'ala yordamida va boshqa shunga o'xshash asboblardan foydalanmasdan yoqish;
- yoqilg'i ta'minotini nazorat qilish va boshqarish asboblari bilan jihozlanmaganda, ular nosoz yoki o'chirilgan holatda bo'lganda ishlatish;
- kiyimlarni yoki boshqa yonuvchi materiallarni qozonlar ustida va mo'rilarda saqlash. Issiqlik nurlanishining yo'nalishi bo'yicha yonuvchan materiallarga bo'lgan masofa kamida 1,25 m bo'lishi kerak;
- ko'rish tuynugi orqali ishlatiluvchi aralashmani yoqish;
- sarflash materiallari baklarini purkagichlar, shuningdek qozonxona jihozlari devoriga 2 m yaqinlikda o'rnatish;
- ochiq yoqilg'i baklari bilan ishlash;
- sath o'lchash moslamalari bilan jihozlanmagan sarflash materiallari baklari bilan ishlash;
- qurilma va sarflash baklari yaqinida yonuvchan materiallardan to'siqlar o'rnatish;
- shamollatish kanallari va boshqa kanallardan dudburon sifatida foydalanish.

Podpolkovnik O'ktam XAITOV,
qo'mondonlik yong'in xavfsizligi
xizmati boshlig'i

● Nima uchun qishda vitaminlar qabul qilish kerak? Ularning tanqisligi nimalarga olib kelishi mumkin?

● Qish faslida qabul qilinishi lozim bo'lgan 5 vitamin.

● Ularni qaysi vaqtda qabul qilish to'g'ri bo'ladi?

Vitaminlar inson organizmida ko'plab muhim funksiyalarni bajaradi: metabolik jarayonlarni tartibga soladi, hujayralarning normal o'sishiga yordam beradi, gormonlar sintezida ishtirok etadi, immun tizimini qo'llab-quvvatlaydi, tanani tashqi omil va virusli kasalliklardan himoya qiladi.

Vitaminlar yetishmasligi tananing barcha a'zolari va tizimlari holatiga ta'sir qilishi mumkin. Oziq moddalar yetishmasligi hujayralar yangilanish jarayonining sekinlashishiga, teri, soch, tirnoqlar holatining yomonlashishiga, yurak-qontomir, reproduktiv va asab tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Vitaminlar tanqisligi kuchli charchoq va ish qobiliyatining pasayishiga olib keladi.

Odatda, vitaminlarni oziq-ovqatlardan olamiz. Kuz-qish mavsumida quyosh nuri tanqisligi vujudga keladi. Qish faslida yangi oziq-ovqat mahsulotlarini, meva va sabzavotlarni kam iste'mol qilamiz. Termik ishlov berish jarayonida ko'plab mikroelementlar yo'qolishi hisobiga biz kerakli miqdorda vitaminlarni ololmaymiz. Shuning uchun qishda qo'shimcha vitaminlar qabul qilish tavsiya etiladi.

5 VITAMIN

D vitamini qishki vitamin kompleksining asosiy mikroelementidir. Afsuski, uzoq yillar davomida unga yetarli e'tibor berilmadi. D vitaminiga faqat kalsiyning singdirish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha mikroelement sifatida qaralgan. Keyinchalik bu vitaminning

Qish faslida anday vitaminlar qabul qilish lozim?



boshqa xususiyatlari aniqlandi. Ma'lum bo'lishicha, u melanin sintezida ishtirok etadi, depressiya va surunkali charchoqni yengishga yordam beradi, mavsumiy apatiyani kamaytirishga yordam beradi. Tadqiqotlarga ko'ra, D vitamini I va II turdagi qandli diabet, glyukoza intoleransi, gipertenziya, skleroz va boshqa bir qator kasalliklarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi, shuningdek immunitetni mustahkamlashga yordam beradi.

E'tibor bering, D vitamini kompleksini kuz oyidan, ya'ni qishdan bir-ikki oy oldin qabul qilishni boshlash kerak. Optimal vaqt – oktabr oyi o'rtalari. Bu bilan siz tanangizni mavsumiy o'zgarishlarga tayyorlaysiz, turli virusli kasalliklarning oldini olasiz.

Shamollagan paytimizda biz sevib ichadigan malina yoki limonli choy ham C vitaminiga boydir. **C vitamini** har qanday odamni tezda oyoqqa turg'izadigan haqiqiy sehrgar. U organizmida ishlab chiqarilmaydi

va asosan oziq-ovqat mahsulotlari orqali qabul qilinadi. Dori shaklidagi C vitamini organizmga tez so'riladi va samarali ta'sir qiladi. U nafaqat immun tizimini mustahkamlaydi, balki organizmdagi regenerativ jarayonlarda faol qatnashadi. Shuningdek, qishda qabul qilish muhim bo'lgan A, E va B guruhi vitaminlariga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi.

E vitamini kapsula va yog'li eritma shaklida mavjud. Kapsula shaklidagi vitamin odatda ichga qabul qilish uchun, yog'li eritma esa ko'pincha kosmetik maqsadlarda ishlatiladi. E vitamini shamollaganda organizmning tezroq tiklanishiga yordam beradi va immun tizimini qo'llab-quvvatlaydi. Quyosh faolligi past bo'lgan davrda vitaminlar kompleksi birgalikda qabul qilinsa, surunkali charchoqni oson yengish mumkin.

A vitamini virusli infeksiyalarning yuqori davrida shilliq qavatlarining himoya xususiyatlarini oshirishga yordam beradi. Leykotsitlarning faolligini oshiradi. A vitamini ham kapsula shaklida, ham yog'li eritma shaklida mavjud va u turli maqsadlarda ishlatilishi mumkin.

B guruhi vitaminlari (B_2 , B_5 , B_9) qishda tanaga ko'p foyda keltiradi, virusli kasalliklar bilan kurashishda yordam beradi. Foliy kislotasi (B_9 vitamini) immun tizimi hujayralarining rivojlanishi va samarali bo'linishi uchun zarurdir.

ICHISH TARTIBI

Har qanday vitaminni kamida bir oy davomida, D vitaminini esa bundan farqli ravishda 2-3 oy ichish maqsadga muvofiq. Lekin ularni ichishdan oldin har birini alohida o'rganib chiqqan ma'qul albatta. Chunki vitaminlar bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Agar mikroelementlar bir-biri bilan kelishmasa, ular yaxshi so'rilmaydi. Vitaminlarni asosan ertalabki nonushtadan so'ng yoki tushlikdan 20-30 daqiqa o'tgach, suv yoki sharbat bilan ichish tavsiya etiladi. Ularni choy, qahva, gazlangan ichimliklar, ayniqsa energetiklar bilan qabul qilish mumkin emas. Har qanday dori vositasini shifokor maslahati bilan qabul qilgan afzal.

Immunitetni ko'taruvchi mahsulotlar

- Baliq – immunitet mustahkam bo'lishi uchun muhim rol o'ynaydi. Tarkibidagi ruh moddasi immunitet ishlab chiqarishga xizmat qiladi.
- Shokolad – tarkibida kakao bo'lgani sababli u organizmdagi zararli bakteriyalardan himoya qiladi.
- Qovoq – organizm salomatligi uchun eng kerakli mahsulot. U immunitet uchun muhim bo'lgan betokarotinni o'z ichiga oladi.
- Sarimsoq piyoz – xavfli kasalliklarning oldini oladi va bakteriyani yo'qotishga ko'maklashadi.
- Zanjabil – C va B vitamini, retinol kabilarni o'z ichiga oladi. Shamollashning oldini olishda va davolashda yordam beradi.

- Limon – C vitamini bisyor bo'lgan mazkur sitrus meva immunitetni mustahkamlaydi.
- Anor – yallig'lanishga qarshi kuchli ta'sirga ega, chunki antioksidantlarga boy.
- Na'matak – shamollaganda eng yaxshi ichimliklardan biri. Immun tizimini mustahkamlaydi.
- Asal – yaralarning bitishi, asab va immun tizimini mustahkamlash bilan birga kasallikdan tezroq tuzalishga yordam beradi.
- Olma – pektin va tolani o'z ichiga oladi, toksinlarni olib tashlaydi, ovqat hazm qilish tizimini rag'batlantiradi, dizenteriya, oltin stafilokokk, gripp A viruslari patogenlarini o'ldiradi.
- Karam – og'ir metallar va toksinlarni olib tashlaydi, oshqozon-ichak trakti mikroflorasini normallashtiradi, vitaminlar sintezida ishtirok etadi.



Pazanda

Go'shtli taom

Kerakli mahsulotlar:

500 g no'xat, 1 kg lahm go'sht, 2 dona piyoz, 2 choy qoshiq tomat, ziravorlar, tuz va 1 choy qoshiq shakar, ko'kat, sarimsoq piyoz, qovurish uchun 200 ml yog'.

Lochira uchun: 400 g un, 1 dona tuxum, 1 osh qoshiq dumba yog'i, 0,5 choy qoshiq tuz, 150 g sariyog', 350 ml suv.

Tayyorlanishi: qizib turgan yog'da to'g'ralgan go'shtni, ziravor, tuz, sarimsoq piyoz, o'rtacha kattalikda parrak qilib to'g'ralgan piyoz va tomat solib, qovuramiz. Tomatning taxiri chiqmasligi uchun ozroq shakar solamiz. Yaxshilab qovurib olganimizdan so'ng no'xat (3-4 soat oldin ivitiladi) va botarbotmas suv solib qaynatamiz. Past olovda hil-hil pishguncha qaynatishni davom ettiramiz.

Lochira tayyorlash uchun idishga tuxum, suv, tuz, eritilgan dumba yog'i, eritilgan sariyog' solib



aralashdirib, ozginadan un qo'shib, qattiqroq xamir qoramiz. So'ng 10 daqiqa xona haroratida tindiramiz. Xamirlarni o'rtacha qalinlikda yoyib, kosa holiga keltirish uchun qoliplardan foydalanib, pechda pishirib olamiz. Pishgan lochiralarmizdan kosa o'rnida foydalanamiz.

Tayyor bo'lgan go'shtli sho'rakni lochiralarga solib, ko'katlar bilan bezak berib, dasturxonga tortamiz.

Yoqimli ishtaha!

ZAVQLI ILHOM

manzarasi

Quvnoqlar va zukkolar – bu o'zgacha ijodiy muhit, kulgi va aql tezkorligini uyg'unlashtiradigan jamoa birdamligidir. Quvnoqlar – hayotni samimiy ko'ruvchi, unga xushchaqchaq kayfiyat bilan yondashadigan tabassum elchilari. Zukkolar esa o'zining tezkor fikrlashi, mulohazakorligi va intellekti yuqori hozirjavoblardir.



Bu ikki toifa, xuddi ikki qanot kabi, bir-birini to'ldirib, tinglovchi va tomoshabinlar uchun zavqli va ilhomli manzara yaratadi. Bunda yumor va zakovatning betakror uyg'unligi, qalblarni ezgulik va do'stlikka chorlovchi ijodiy salohiyatni kuzatishingiz mumkin.

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida Mudofaa vazirligi tasarrufidagi harbiy qism va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'tgan "Quvnoqlar va zukkolar" ko'rik-tanlovining yakuniy bosqichi ham hayotiy mavzularning yorqin talqinini kulgi va aql bilan tomoshabinlarga taqdim etgani bilan qimmatli bo'ldi.

Ko'rik-tanlovining adolatli va shaffof tarzda o'tishi uchun Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi ijodkor yoshlar bilan ishlash bo'limi, Mudofaa vazirligi Ma'naviyat va madaniyat departamenti huzuridagi "Turon" davlat harbiy teatri, "Quvnoqlar va zukkolar" assotsiatsiyasining vakillaridan iborat hakamlar hay'ati xolis baholab bordi.



Hay'at a'zolari jamoalarning chiqishlarini baholashda hazil-mutoyibalarning dolzarbligi, yorqinligi, musobaqa mavzusiga asoslangani, tomoshabopligi, ishtirokchilarning ijro mahorati, sahna madaniyatiga rioya etishlari, musobaqaning talab va qoidalariga qat'iy amal qilishlari kabi mezonlarga asoslandi.

Qizg'in va samimiy yumorga boy bo'lgan bellashuvda harbiy okrug va oliy harbiy ta'lim muassasasi sharafini himoya qilgan barcha ishtirokchi jamoalar g'oliblik uchun astoydil harakat qildi. Bu intilish ishtirokchilarning har bir chiqishining rang-barangligini ta'minladi va barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Bellashuv o'z nomi bilan bellashuv bo'lgani uchun unda eng munosiblar saralanadi. Bu gal ham shunday bo'ldi. Shunday qilib, yakuniy natijaga ko'ra, harbiy okrug va qo'mondonliklar o'rtasidagi bellashuvlarda Sharqiy harbiy okrugning "Quvnoq desantchilar" jamoasi hamda Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligining "Fidoyilar" jamoasi 1-o'rinni, Toshkent harbiy okrugining "Desantchilar" jamoasi 2-o'rinni va Markaziy harbiy okrugning "Artilleriya" jamoasi 3-o'rinni egalladi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'rtasidagi bahslarda esa Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtining "Quvnoq tankchilar" jamoasi mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritgan bo'lsa, Qurolli Kuchlar akademiyasining "O'zbekim" jamoasi 2-o'ringa, O'zbekiston oliy harbiy aviatsiya institutining "Aviator" jamoasi esa faxrli 3-o'ringa loyiq ko'rildi.

Yakuniy bosqich g'oliblari "Quvnoqlar va zukkolar" o'yinining ko'chma kubogi, diplom va qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi.

Ro'ziqul OCHILOV,
"Vatanparvar"

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati
bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI

VATANPARVAR

MUASSIS



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-91
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-90

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova

Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva
Musahhih: Zebo Sariyeva

Buyurtma: V-5873
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 522 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy.